8	Italiya va Germaniya davlatlari chegaradoshmi?	<i>Yo’q</i>	
9	Malta yarimorol davlati hisoblanadimi?	<i>Yo’q</i>	<i>Yarimorol davlatlar (7 ta): Gretsiya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya</i>
10	Buyuk Britaniya YIM hajmi bo’yicha Yevropada 1-o’rinda turadimi?	<i>Yo’q</i>	<i>YIM hajmi bo’yicha Yevropada Germaniyadan keyingi 2-o’rinda turadi.</i>

2. Qo’shimcha manbalar asosida quyidagi dunyoga mashhur tovar brendlari Yevropaning qaysi davlatlariga tegishli ekanini toping.



Javob:

Rasmda belgilanishi	Qaysi davlatga tegishli ekanligi	Qisqacha ma’lumot
a	Germaniya	<i>Mercedes-Benz avtobus va yuk avtoulavlari brendidir. Mercedes-Benz shtab-kvartirasi Shtutgartda joylashgan. Mercedes-Benz Audi va BMW qatorida „Olmoniya katta uchligiga“ kirib, dunyo bo’ylab eng ko’p luks avtomobil sotadigan ishlab chiqaruvchilardan biridir.</i>
b	Italiya	<i>"FIAT" (FIAT; Fabbrica Italiana Automobili Torino) — Italiyadagi eng yirik avtomobil korporatsiyasi. Yengil, sport, yuk avtomobillari, sanoat (metro poyezdlari, vagonlar) va qishloq xo’jaligi texnikalari ishlab chiqaradi, shuningdek, aerokosmik mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalari ham bor. Uning bosh idorasi Turin shahrida.</i>

d	Fransiya	<i>Renault Group — 1899-yilda tashkil etilgan fransuz avtomobil korporatsiyasi. Kompaniyaning bosh qarorgohi Parij yaqinidagi Bulon-Bilyankur shahrida joylashgan. Renault-Nissan-Mitsubishi alyansining bir qismi.</i>
e	Buyuk Britaniya	<i>Bentley Motors Limited — hashamatli avtomobillar va sport carlar ishlab chiqaruvchi Buyuk Britaniya ishlab chiqaruvchisi va sotuvchisi hamda 1998-yildan beri Volkswagen guruhining sho'ba korxonasi va 2022-yildan beri Volkswagenning premium brendi Audi bilan birlashtirilgan. Bosh qarorgohi Crewe shahrida (Angliya) joylashgan kompaniya 1919-yilda Shimoliy Londonning Cricklewood shahrida W. O. Bentley tomonidan Bentley Motors Limited sifatida tashkil etilgan</i>
f	Rossiya	<i>Lada - AvtoVAZ (dastlab VAZ) tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar markasi, frantsuz Renault Groupega tegishli Rossiya kompaniyasi. AvtoVAZ tomonidan Fiatning texnik yordami bilan ishlab chiqarilgan dastlabki avtomobillar dizayner A. M. Chernyning taklifiga binoan tanlangan "Jiguli" brendi ostida sotilgan.</i>
g	Germaniya	<i>Volkswagen Aktiengesellschaft — nemis avtomobil konserni (kompaniyalar guruhi). Kompaniyaning bosh ofisi Volfzburg (nemischa: Wolfsburg), Germaniyada joylashgan. Kompaniya Volkswagen (nemischadan tarjimasi — "Xalq mashinasi") markasi bo'yicha nomlangan.</i>

3. Quyidagi ta'riflar qaysi davlatlarga tegishli ekanini toping.

Javob:

Belgilanishi	Ta'riflar	Qaysi davlatga tegishli ekanligi
A	Yarimorolda joylashgan, katoliklar soni bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi, qishloq xo'jaligi subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan	Italiya
B	Mo'tadil dengiz iqlimi shakllangan, aholisi asosan tashqi migratsiya hisobiga o'smoqda, sanoat inqilobi vatani	Buyuk Britaniya
D	Yer yuzidagi eng ko'p chuchuk suv yig'ilgan ko'li bor, kimyo sanoatining eng muhim mahsuloti turli mineral o'g'itlar hisoblanadi, rasman 12 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi	Rossiya Federatsiyasi

E	Shimoli-sharqda Boltiq dengizi suvlari bilan yuviladi, aholisi yirik daryolarning vodiylarida juda zich joylashgan, turli sanoat mahsulotlarining yuqori sifati bilan dunyoga mashhur	Germaniya
F	Hududining 2/3 qismini tekisliklar egallaydi, elektr energetikasida AESlar birinchi darajali ahamiyatga ega, jahon mamlakatlari ichida turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlat hisoblanadi	Fransiya

31-§. OSIYO QIT'ASINING GEOGRAFIK O'RNI, CHEGARALARI VA SIYOSIY XARITASI.

1. Osiyoning tabiiy va siyosiy xaritalarini solishtiring. Qaysi davlatlarda tog'li relyef ustunlik qiladi?

Javob:

Nepal, Butan, Xitoy, Vetnam, Qirg'iziston, Tojikiston, Eron, Afg'oniston davlatlarida tog'lik relyef ustunlik qiladi.

2. Quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tasdiqlang.

T/R	Ma'lumotlar	“To'g'ri” yoki “noto'g'ri”	Izoh
1	Osiyoda maydoni 1 ming km ² dan kichikroq bo'lgan 2 ta davlat mavjud — Singapur va Maldiv Respublikasi.	noto'g'ri	3 ta davlat mavjud — Bahrayn, Singapur va Maldiv Respublikasi.
2	Osiyo to'rtta okean bilan yuviladigan yagona qit'a.	to'g'ri	Uning qirg'oqlari shimolda (Rossiyaning hududi) Shimoliy Muz okeani, janubda Hind okeani, sharqda Tinch okean va g'arbda Atlantika okeani havzasiga tegishli O'rta va Qora dengiz suvlari bilan yuviladi. Suvaysh kanali Osiyoni Afrikadan, Bering bo'g'izi esa Shimoliy Amerikadan ajratadi.
3	Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni va Qozog'iston jahonning 10 ta eng yirik davlatlari guruhiga kiradi.	noto'g'ri	Rossiya, Xitoy, Hindiston va Qozog'iston jahonning 10 ta eng yirik davlatlari guruhiga kiradi. Yana 4 ta davlat — Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Eron va Mongoliyaning maydoni 1 mln km ² dan katta. Shuningdek, hududi 500 ming km ² dan ziyod bo'lgan Pokiston, Turkiya, Afg'oniston, Myanma, Yaman va Tailand ham


			<i>katta mamlakatlar hisoblanadi.</i>
4	Osiyoda Yevropaga nisbatan kichik davlatlar sezilarli darajada ko'p.	noto'g'ri	<i>Osiyoda Yevropaga nisbatan katta va yirik davlatlar sezilarli darajada ko'p.</i>
5	KXDR, Koreya Respublikasi, Mongoliya, Xitoy, Yaponiya Sharqiy Osiyo subregionida joylashgan.	to'g'ri	
6	Indoneziya Osiyoning eng yosh davlatlari qatoriga kiradi.	noto'g'ri	<i>Qit'aning eng yosh davlatlari qatoriga 1991-yil sobiq Ittifoq parchalanishi natijasida mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston davlatlari hamda 2002-yil mustaqil davlatga aylangan Sharqiy Timor kiradi.</i>
7	Dunyoda ichki kontinental davlatlardan eng yirik ikkitasi Turkmaniston va Mongoliya hisoblanadi.	noto'g'ri	<i>Dunyoning ichki kontinental davlatlaridan eng yirik ikkitasi (Qozog'iston va Mongoliya) aynan Osiyoda joylashgan.</i>
8	Iroq mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega.	noto'g'ri	<i>Qit'adagi 47 ta davlatdan 34 tasi respublika, 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyodagi 5 ta mutlaq monarxiyadan 4 tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan.</i>
9	Osiyo qit'asi bosh meridianga nisbatan asosan Sharqiy yarimsharda joylashgan.	to'g'ri	<i>Osiyo qit'asi ekvatorga nisbatan asosan Shimoliy yarimsharda, bosh meridianga nisbatan esa asosan Sharqiy yarimsharda joylashgan</i>
10	Osiyo subregionlari ichida Janubi-sharqiy Osiyo davlatlar soni bo'yicha yetakchilik qiladi.	noto'g'ri	<i>Janubi-g'arbiy Osiyoda – 19 ta, Janubi-sharqiy Osiyoda – 11 ta, Janubiy Osiyoda – 7 ta, Markaziy Osiyoda – 5 ta, Sharqiy Osiyoda – 5 ta.</i>

17-jadval. Osiyo subregionlari tarkibi haqida ma'lumot

Osiyo subregionlari	Davlatlar
Janubi-g'arbiy Osiyo	Afg'oniston, Armaniston, Bahrayn, BAA, Gruziya, Eron, Iordaniya, Iroq, Isroil, Kipr, Livan, Ozarbayjon, Qatar, Kuvayt, Saudiya Abaristoni, Suriya, Turkiya, Ummon, Yaman
Markaziy Osiyo	Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston
Janubiy Osiyo	Bangladesh, Butan, Hindiston, Maldiv Respublikasi, Nepal, Pokiston, Shri Lanka
Sharqiy Osiyo	KXDR, Koreya Respublikasi, Mongoliya, Xitoy, Yaponiya
Janubi-sharqiy Osiyo	Bruney, Filippin, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Sharqiy Timor, Singapur, Tailand, Vetnam

3. Mavzu matni hamda darslik ilovasidan foydalangan holda Osiyodagi monarxiya davlatlarini toping hamda ularni yozuvsiz xaritaga tushiring.

Javob:



Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Poytaxti	Qaysi subregionga qaraydi
1	Bahrayn	Manama	Janubi-gʻarbiy Osiyo
2	Bruney	Bandar Seri Begavan	Janubi-sharqiy Osiyo
3	Birlashgan Arab Amirliklari	Abu Dabi	Janubi-gʻarbiy Osiyo
4	Butan	Tximpxu	Janubiy Osiyo
5	Iordaniya	Ummon	Janubi-gʻarbiy Osiyo
6	Kambodja	Pnompen	Janubi-sharqiy Osiyo
7	Yaponiya	Tokio	Sharqiy Osiyo
8	Quvayt	Al Quvayt	Janubi-gʻarbiy Osiyo
9	Malayziya	Kuala Lumpur	Janubi-sharqiy Osiyo
10	Qatar	Doxa	Janubi-gʻarbiy Osiyo
11	Saudiya Arabistoni	Ar Riyod	Janubi-gʻarbiy Osiyo
12	Tailand	Bangkok	Janubi-sharqiy Osiyo
13	Ummon	Maskat	Janubi-gʻarbiy Osiyo

Qitʼadagi 47 ta davlatdan 34 tasi respublika, 13 tasi monarxiya (shundan Janubi-gʻarbiy Osiyoda 7 ta, Janubi-sharqiy Osiyoda 4 ta, Janubiy Osiyo va Sharqiy Osiyoda 1 ta dan) boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyodagi 5 ta mutlaq monarxiyadan 4 tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan.

4. Osiyoning orollarda joylashgan davlatlarini xaritadan topib, ularning nomlari va poytaxtlarini daftaringizga yozib oling.

Javob:

№	Davlat nomi	Poytaxti
1	Indoneziya	Jakarta
2	Filippin	Manila
3	Sharqiy Timor	Dili
4	Singapur	Singapur
5	Brunej	Bandar Seri Begavan
6	Yaponiya	Tokio
7	Shri Lanka	Kolombo
8	Maldiv Respublikasi	Male
9	Kipr	Nikosiya
10	Bahrayn	Manama
<i>Osiyo davlatlaridan 10 tasi orollarda joylashgan</i>		

32-§. AMALIY MASHG'ULOT. OSIYO SIYOSIY XARITASINI O'RGANISH.

1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagi Osiyo davlatlari orasidan quruqlik ichkarisida joylashganlarini toping.

Gruziya	Kambodja	Suriya	Nepal
Afg'oniston	Livan	Mongoliya	Armaniston
Butan	Iroq	Laos	Qozog'iston
Brunej	Iordaniya	Qatar	Bangladesh

Javob:

Afg'oniston, Butan, Iordaniya, Mongoliya, Laos, Nepal, Armaniston, Qozog'iston.

2. Osiyo qirg'oqlarini yuvib turuvchi okean, dengiz, qo'ltiq va bo'g'izlar nomlarini daftaringizga yozib oling.

Javob:

Okean	Dengiz	Qo'ltiq'	Bo'g'iz
Tinch	Arabiston	Fors	Xormuz
Atlantika	Qizil	Ummon	Bob-al-Mandeb
Hind	Andaman	Bengal	Malakka
Shimoliy Muz	Yava	Adan	Koreya
	Janubiy Xitoy	Bakbo (Tonkin)	Tayvan
	Oxota	Sharqiy Koreya	Bashi
	Sulu	G'arbiy Koreya	

	Sulawesi	Siam	
	Sariq		
	Sharqiy Xitoy		
	Sharqiy (Yapon) dengiz		
	Timor		
	Qora		
	O'rta		
	Arafur		

3. Atlasdagi jahon va Osiyoning siyosiy xaritalari hamda darslik ilovasidagi ma'lumotlar asosida quyidagi davlatlarning poytaxtlari to'g'ri yoki noto'g'ri berilganini aniqlab, xatolarni tuzating.

Tailand — Bangkok

Gruziya — Boku

Yaman — Sana

Yaponiya — Tokio

Eron — Islomobod

Qirg'iziston — Bishkek

Turkiya — Bag'dod

Vetnam — Xanoy

Qatar — Abu Dabi

Sharqiy Timor — Dili

Tojikiston — Dushanbe

Shri Lanka — Dakka

Filippin — Male

Bahrayn — Manama

Indoneziya — Jakarta

Javob:

Tailand — Bangkok

Gruziya — Tbilisi

Yaman — Sana

Yaponiya — Tokio

Eron — Tehron

Qirg'iziston — Bishkek

Turkiya — Anqara

Vetnam — Xanoy

Qatar — Doha

Sharqiy Timor — Dili

Tojikiston — Dushanbe


Shri Lanka — Kolombo

Filippin — Manila

Bahrayn — Manama

Indoneziya — Jakarta

4. Rasmda berilgan davlatlar nomini aniqlang va ularning umumiy o'xshash jihatini toping.



Javob:

Rasmda belgilanishi	Davlat nomi	Potaxti
a	Birlashgan Arab Amirliklari	Abu Dabi
b	Nepal	Katmandu
d	Malayziya	Kuala Lumpur
e	Pokiston	Islomobod
f	Iroq	Bag'dod
g	Hindiston	Dehli

Ma'muriy-hududiy jihatdan Osiyodagi 6 ta davlat federativ tuzilishga ega — Hindiston, Pokiston, Iroq, Malayziya, Nepal va Birlashgan Arab Amirliklari.

5. Quyidagi xaritada ajratib ko'rsatilgan davlatlar nomini toping va ularga tegishli ma'lumotlarni to'g'ri tanlang.




- a) federativ tuzilishga ega;
- b) jahonning 2 ta eng yirik ichki kontinental davlatlaridan biri;
- d) jahonning 10 ta eng yirik davlatlari qatoriga kiradi;
- e) Osiyoning eng yosh davlatlaridan biri;
- f) mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega;
- g) poytaxti Tximpxu shahri.

Javob:

Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Mos kelgan ma'lumot
1	Gruziya	<i>e</i>
2	Butan	<i>g</i>
3	Pokiston	<i>a</i>
4	Xitoy	<i>d</i>
5	Saudiya Arabistoni	<i>f</i>
6	Mongoliya	<i>b</i>

33-§. OSIYO MAMLAKATLARINING IQTISODIY RIVOJLANGANLIGI.

- Quyidagi davlatlar nomini aniqlang va ular orasidan iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlarni toping. Ushbu davlatlardan qaysilari iqtisodiy taraqqiyoti sustligiga tabiiy sharoiti va relyef tuzilishidagi murakkabliklar katta ta'sir ko'rsatadi?



Javob:

Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Poytaxti	Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar	Iqtisodiy taraqqiyoti sustligiga tabiiy sharoiti va relyef tuzilishidagi murakkabliklar katta ta'sir ko'rsatadigan davlatlar
A	Shri Lanka	Kolombo		
B	Nepal	Katmandu	+	+
D	Mongoliya	Ulan Bator		
E	Yaman	Sana	+	
G	Afg'oniston	Qobul	+	
H	Shimoliy Koreya	Pxenyan		
F	Iroq	Bag'dod		
K	Gruziya	Tibilisi		
L	Sharqiy Timor	Dili	+	
M	Butan	Tximpxu	+	+
N	Kambodja	Pnompen		
J	Qozog'iston	Nur Sulton (Astana)		
I	Myanma	Neypido	+	

2. Osiyoning turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlarini xaritadan ko'rsating.



Javob:

Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Poytaxti	Qit'a mamlakatlari iqtisodiy rivojlanganligi va xo'jaligining ixtisoslashuviga ko'ra bir nechta guruhlari
1	Kipr	Nikosiya	<i>Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlar</i>
2	Livan	Bayrut	
3	Maldiv Respublikasi	Male	
4	Yaponiya	Tokio	<i>"Katta yettilik" davlati</i>
7	Isroil	Tel Aviv	<i>"ko'chirilgan kapitalizm" davlati</i>
5	Xitoy	Pekin	<i>Tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar</i>
6	Hindiston	Dehli	
8	Koreya Respublikasi	Seul	<i>Osiyoning yangi industrial davlatlari</i>
11	Singapur	Singapur	
9	Malayziya	Kuala Lumpur	
10	Tailand	Bangkok	
12	Indoneziya	Jakarta	<i>Yirik industrial-agrar davlatlar</i>
13	Pokiston	Islomobod	
14	Flippin	Manila	
15	Vetnam	Xanoy	
16	Turkiya	Anqara	
17	Eron	Tehron	
18	Qozog'iston	Nur Sulton (Astana)	<i>O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar</i>
19	Qirg'iziston	Bishkek	
20	O'zbekiston	Toshkent	
21	Tokikison	Dushanbe	
22	Turkmaniston	Ashxobod	
23	Ozarbayjon	Boku	
24	Armaniston	Yerevan	
25	Gruziya	Tibilisi	
26	Kambodja	Pnompen	<i>Sust rivojlangan agrar-industrial davlatlar</i>
27	Shri Lanka	Kolombo	
32	Iordaniya	Ummon	
30	Iroq	Bag'dod	
32	Suriya	Damashq	
29	Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	Pxenyan	
33	Afg'oniston	Qobul	
34	Nepal	Katmandu	

35	Yaman	Sana	<i>Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar</i>
36	Myanma	Neypido	
37	Sharqiy Timor	Dili	
38	Butan	Tximpxu	
39	Laos	Ventyan	
<i>Neft eksport qiluvchi davlatlar — Fors qo'ltig'i arab davlatlari va Brunej.</i>			

34-§. QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI.

Qozog'iston yoki Qazaqston Respublikasi (qozoqcha: Қазақстан, Qazaqstan, Қазақстан Республикасы, Qazaqstan Respublikası) – O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropada joylashgan mamlakat. Ushbu davlat ma'muriy jihatdan 17 viloyat, viloyatlar esa audan (tuman) larga bo'linadi. Poytaxti – Astana shahri. BMT a'zosi. Qozog'istonning eng yirik megapolis shaharlari Olmota Astana, Chimkent shaharlari hisoblanadi. Undanan keyingi yirikroq shaharlari esa Qarag'andi va Aqto'be. Qozog'iston yer maydoni bo'yicha (2 million 724,9 ming km²) jahonda 9-o'rinda turadi. Beshta davlat bilan chegaradosh, Shimol tarafida Rossiya bilan – 6 467 km, janubda – Turkmaniston– 380 km, O'zbekiston– 2 300 km va Qirg'iziston– 980 km, sharqida – Xitoy bilan – 1 460 km chegaradosh. Umumiy quruqlik chegarasining uzunligi – 13392,6 km hosoblanadi. Shuningdek, g'arbiy tarafida Kaspiy dengizi va janubda Orol dengizi suvlari yuvib turadi. Qozog'iston aholisi soni 19,17 mln. kishi (2022-yil)

Qozog'iston haqida qiziqarli faktlar

- Bu dunyodagi eng katta davlat, dengizga chiqish imkoniyati yo'q.
- Dunyodagi eng katta chodir Qozog'istonda joylashgan – polimer materialdan yasalgan ulkan gumbaz ostida do'konlar, kafelar, sun'iy suv oqimi bilan xususiy plyaj va istirohat bog'i joylashgan savdo va ko'ngilochar markaz mavjud. Norman Foster tomonidan ishlab chiqilgan Xon Shatir inshootining maydoni 127 ming kvadrat metrni tashkil etadi.
- Qozoq tog'larida dengiz sathidan deyarli 1700 metr balandlikda joylashgan Medeo konki maydoni dunyodagi eng katta va eng baland tog 'muz arenasidir. Maydoni 10,5 ming kvadrat metr bo'lgan konkida bir vaqtning o'zida 8 ming kishini sig'dira oladi.
- Qozog'istonning Kaindi ko'li butun dunyodan yuzlab sayyohlar va g'avvoslarni o'ziga tortadi – Suv ombori tubida suv bosgan o'rmon bor va suvdan chiqib turgan daraxt tepalari hayratlanarli darajada go'zal manzara yaratadi.
- Erning birinchi sun'iy yo'ldoshi va birinchi kosmonavt Qozog'istonning "Boyqo'ng'ir" kosmodromidan orbitaga chiqdi. Ayni paytda Rossiya va Qozog'iston o'rtasida kosmodromni 2050 yilgacha ijaraga berish bo'yicha shartnoma tuzilgan.
- Qozoq tili dunyodagi eng boy shevalardan biri sanaladi. Olimlarning fikricha, til 2,5 millionga yaqin so'zdan iborat.
- Qozog'iston hududidagi qadimiy shaharlar Buyuk Ipak yo'li tufayli paydo bo'lgan, chunki savdogarlar dashtlardan xavfsiz o'tish va qulay dam olish imkoniyati uchun pul to'lashga tayyor edilar.

- Qozog'istonda yirikligi bo'yicha to'qqizinchi davlat. dunyoda atigi 18 million kishi, shu jumladan poytaxtda 2 million kishi bor.
- Qozog'istondagi Korgaljinskiy qo'riqxonasi sayyoradagi flamingolarning eng shimoliy panohidir. Bu yerga har yili 35 minggaacha pushti qushlar keladi (qushlar haqida qiziqarli ma'lumotlar).
- Qozog'iston qa'rida davriy sistemani tashkil etuvchi 105 ta elementdan 99 tasini qazib olish mumkin.
- Qozog'istonda nemis, koreys va uyg'ur milliy teatrlari faoliyat yuritadi.
- 1970-yillarda qozoq hayvonot bog'ida fil Botir yashagan, u inson nutqi va boshqa tovushlarga taqlid qilishni bilgan.
- Aktau shahridan uzoqda, noodatiy masjid bor – unga kirish uchun musulmon bir yarim kilometr yer ostiga tushishi kerak.
- Qadimda qozoqlar tashnalik va ochlikni maxsus choy yordamida qondirgan, unda sut, sariyog', tuz, bo'laklari quyruq yog'i va un qo'shildi.
- Qozog'istonning Balxash ko'lidagi suvning yarmi chuchuk, qolgan yarmi sho'r. Bu sirning ilmiy izohi haligacha yo'q.
- Ikkinchi jahon urushi yillarida Qizil Armiya qurollari uchun har uchinchi o'q Qozog'istonda qazib olingan metallardan quyilgan.
- Qozog'iston yiliga o'rtacha 1,2 kg choy iste'mol qiladi. Taqqoslash uchun, Hindistonda bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 650 grammni tashkil etadi.
- Qozog'iston uran qazib olish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.


35-§. QIRG'IZ RESPUBLIKASI.

Qirg'iziston haqida faktlar.

- Mamlakatning poytaxti Bishkek uning eng katta shahri hisoblanadi. 2019-yilda bu yerdagi aholi soni bir million kishidan oshdi.
- MDHning barcha davlatlari orasida Qirg'iziston hududi bo'yicha 7-o'rinda turadi.
- Qirg'iziston yong'oqning vatani bo'lsa kerak.
- Sovet davrida Bishkek bir vaqtlar «Frunze» deb atalgan. Shu bilan birga, sovet hokimiyati "f" tovushi qirg'iz tilida yo'qligini hisobga olmadi va shahar "Prunze" deb ataldi.
- Bir paytlar mashhur Iskandar Zulqarnaynning yo'li hozirgi Qirg'iziston hududidan o'tgan (Iskandar Zulqarnayn haqida qiziqarli faktlar).
- Qirg'izistonda qirg'iz tili davlat tili hisoblanadi, lekin rus tilida ham bor. rasmiy maqom.
- Kosmonavtlarning ta'kidlashicha, Yer yaqinidagi orbitada Qirg'izistonning mashhur Issiqko'l ko'li odam ko'ziga o'xshaydi.
- Qirg'izistonda «oy gulining» noyob endemik kenja turi o'sadi. Bu erda «aygul» deb ataladi. Qolaversa, Oygultosh tog'ining bir yon bag'ridagina o'sadi.
- Bishkek markazida, Ala-Too maydoni ostida Sovet davrida mahalliy hokimiyatlar uchun boshpana sifatida qurilgan yer osti bunker bor. Endi siz hatto tashrif buyurishingiz mumkin, vaqti-vaqti bilan turli ko'rgazmalarga mezbonlik qiladi.
- Dunyodagi eng katta yong'oq va mevali o'rmonlar Qirg'izistonda joylashgan. Go'zal Arslonbob daryosi vodiysida ular qariyb 600 ming gektar maydonni egallaydi.

- Bu yerda noyob Merzbaxer ko'li bor. Ikki tog 'tizmasi orasiga joylashib, paydo bo'ladi va yo'qoladi. Ushbu hodisaning mohiyatini tushunishga urinishlar hali natija bermadi.
- Qirg'izistonning dengizga chiqish imkoni yo'q. U har tomondan Xitoy, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston bilan o'ralgan (Qozog'iston haqida qiziqarli ma'lumotlar).
- Qirg'izistonda yuqorida tilga olingan Issiqko'l ko'li joylashgan bo'lib, u dunyodagi ikkinchi yirik tuzli ko'ldir (va barcha ko'llarning chuqurligi bo'yicha oltinchi). Birinchi o'rin Kaspiy dengiziga tegishli bo'lib, u aslida ko'l hisoblanadi.
- Qirg'iz muzliklaridan birida biz ming yillar avval ibtidoiy ovchilar qilgan sovuq tufayli mukammal saqlanib qolgan o'qlarni topishga muvaffaq bo'ldik.
- Qimiz Qirg'izistonda juda mashhur ichimlikdir. U ot sutidan tayyorlanadi.
- Hech qachon erimaydigan muzliklar Qirg'iziston hududining taxminan 4% ni egallaydi.
- Bu erda, xuddi Mo'g'ulistondagi kabi, haqiqiy ko'chmanchilar hamon yashaydi. Ular uylarda yashaydilar va o'z podalariga ergashadilar.
- Issiqko'lda suvning shaffofligi Baykalning shaffofligidan keyin ikkinchi o'rinda turadi (Baykal haqida qiziqarli faktlar). Va bu ko'l ham Tinch okeani bilan yer osti daryolari tizimi orqali bog'langan.
- Tog'lar Qirg'iziston hududining qariyb 90% ni egallaydi.
- Qirg'izistondagi Pobeda cho'qqisi eng shimoliy tog'dir. dunyoda dengiz sathidan balandligi 7 kilometrdan ortiq bo'lganlar orasida.
- Qozog'istonda qirg'iz tangalari, Malta va Fransiyada banknotalar zarb qilinadi.
- Issiqko'l — bir vaqtlar Kuba inqilobi yetakchisi Fidel Kastroga tegishli bo'lgan villa.
- Qirg'izistonda Qumtor joylashgan bo'lib, balandligi bo'yicha Perudagi Yanakocha konidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Qumtor dengiz sathidan 4 km dan ortiq balandlikda joylashgan.
- Qirg'iziston hududida jami 3500 dan ortiq o'simlik turlari o'sadi.
- Har yili Qirg'izistonga tashrif buyuradigan sayyohlar soni. taxminan bu mamlakat aholisiga teng.
- Qirg'iziston dunyodagi yagona baland tog'li harbiy flotga ega.

1. Quyidagilar orasidan Qirg'izistonning asosiy yer osti boyliklari qatoriga kiradigan foydali qazilmalarni anglatuvchi shartli belgilarni toping.



Javob:

Rasmda belgilanishi	Foydali qazilmalar nomi	Qirg'izistonning asosiy yer osti boyliklari qatoriga kiradigan foydali qazilmalari
a	<i>Oltin</i>	+
b	<i>Asbest</i>	
d	<i>Simob</i>	+
e	<i>Mis</i>	
f	<i>Temir</i>	
g	<i>Surma</i>	+
h	<i>Kaolin, alunit</i>	
i	<i>Aluminiy</i>	
j	<i>Qalay</i>	+
k	<i>Volfram</i>	+

36-§. TURKMANISTON RESPUBLIKASI.

Turkmaniston haqida qiziqarli faktlar.

1. Turkmanistonda faqat bitta uyali aloqa operatori mavjud.
2. Turkmanistonda 33 ta bayram nishonlanadi.
3. Turkmaniston qonun qabul qilishga muvaffaq bo'ldi, unga ko'ra, turkmanlar bilan munosabatlarni qonuniylashtirib, davlat hisobiga 50 ming dollar kiritish kerak edi.
4. Turkmanistonda yashovchi ayollar to'y kunida ko'p kumush taqishadi.
5. Turkmanistonda non, tuz esa muqaddas taom hisoblanadi.
6. Turkmaniston aholisi ona va otani hurmat qiladi.
7. Bunday holatda qabriston yonida haydashda musiqani o'chirish tavsiya etiladi.
8. Turkmaniston tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha ikkinchi davlatdir.
9. Bu mamlakatda yagona gilam muzeyi mavjud.
10. Turkmaniston kommunal xizmatlar uchun to'lamaydigan yagona davlatdir.
11. Bu davlat Turkmaniston hududidan olib chiqish taqiqlangan qimmatbaho buyumlarga boy.
12. Turkmanistonning bo'ri itlari milliy boylikdir.
13. Turkmaniston taomlari oz miqdorda sabzavotlardan iborat.
14. Turkmanlar uzoq vaqt davomida qabilalarga bo'lingan.
15. Turkmanistonda endi yangi va eski banknotalar muomalada.
16. Naqd pul Turkmaniston birligi – manat.
17. Turkmanistonda har yili ko'plab sog'lomlashtirish lagerlari quriladi.
18. Ot go'shtini yemaydigan yagona xalq turkmanlardir.
19. Turkman otlari bayrami aprel oyining oxirgi yakshanbasida nishonlanadigan bayramdir.
20. Qoraqum cho'li Turkmanistonda joylashgan.
21. Turkmaniston, viza rejimiga qaramay, turistik davlatdir.
22. Turkmaniston xalqi o'z yurtini muqaddas deb ataydi.
23. Bu mamlakatda faqat bitta til bor – Turkman.
24. Turkmanistonda aholi kiyimiga nisbatan hech qanday taqiqlar mavjud emas.
25. Turkmanistonda sho'rvalarning juda ko'p navlari tayyorlanadi, bunday turlarini boshqa hech qayerda uchratib bo'lmaydi.
26. Turkmanistonning viza siyosati boshqa davlatlar aholisi uchun juda noqulay.

27. Turkmanistondan qora ikra va baliq eksport qilish taqiqlangan.
28. Turkmanistonda internet cheklangan.
29. Turkmaniston aholisi mehmondo'stligi va xayrixohligi bilan ajralib turadi.
30. Turkman oilalarining asosiy qismini erkaklar tashkil qiladi.
31. Turkmanistonning davlat gerbi faqat 2003 yilda qabul qilingan.
32. Turkmaniston bayrog'ini yaratishda diniy va siyosiy motivlar hisobga olinmagan.
33. Bu davlat qadimiy tarixga va o'ziga xoslikka ega.
34. Turkmaniston prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.
35. Saparmurod Niyozov Turkmanistonning umrbod birinchi prezidenti.
36. Turkmanistonda birinchi ikkita internet-kafe 2007 yilda ochilgan.
37. "Do'zax darvozalari" deb nomlangan gaz krateri; – Turkmanistonning mashhur diqqatga sazovor joyi. 1971-yildan beri u yerda gaz yonib kelinadi.
38. Axalteke zotli otlar Turkmaniston mulki hisoblanadi.
39. Hatto Turkmaniston gerbida ham otlar bor.
40. Turkmanistonda oddiy uy hayvonlari bilan bir qatorda tuyaqushlar ham yuradi.
41. Turkmaniston aholisi yoshiga qarab har doim soch turmagini yaratadi.
42. Turkmaniston Markaziy Osiyo hududida joylashgan eng kam o'rganilgan davlat hisoblanadi.
43. Turkmaniston bayrog'i yashil rangda.
44. Turkmaniston bayrog'idagi besh yulduz mamlakatning besh viloyatidir.
45. Turkmaniston hududida joylashgan Qugitang eng g'ayrioddiy joy. Bu Yura parkining bir turi.
46. Turkmanistonda Axalteke otlariga bag'ishlangan ko'rgazmalar, bayramlar, shou va musobaqalar.
47. Gilam Turkmanistonning eng mashhur brendi hisoblanadi.
48. Turkmanistonda bola tug'ilganda gilam to'qish shart.
49. Turkmanistondagi kuyovning onasi bo'lajak keliniga ikkita lehimli yurak sovg'a qilishi kerak.
50. Turkmanistonda zargarlik san'ati mashhur hisoblanadi.
51. Turkmanistonda eng hurmatli mangal echki go'shtidan tayyorlanadigan mangal hisoblanadi.
52. Palov Turkmaniston xalqi orasida eng mashhur taom hisoblanadi.
53. To'liq foydalanish mumkinligi va tayyorlashning qulayligi Turkmaniston oshxonasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.
55. Turkmanistonda to'ylarda bo'lajak xotinning bosh kiyimi uchun kelin-kuyovlar bilan jang qilishning kulgili marosimi o'tkaziladi.
56. Turkmanistonning har bir fuqarosi o'z Vatanini hurmat qiladi.
57. Turkmanistonning bepoyon kengliklarida hozir ham uy uyini uchratish mumkin.
58. Turkmanlar uchun musiqa ularning hayotidir.
59. Turkmaniston Osiyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblanadi.
60. Turkmanistonning ayrim hududlari xorijlik mehmonlar uchun yopiq.
61. Turkmanistonda narxlar qat'iy belgilangan.
62. Turkmaniston qishloqlarida o'g'rlar deyarli yo'q.
63. Turkmanistonda joylashgan Ashxobod "Sevgi shahri" deb tarjima qilingan.
64. 1948-yilda Ashxobod zilzila natijasida vayron bo'ldi va o'sha paytda 110 mingga yaqin turkman halok bo'ldi.
65. Qadimda Turkmaniston hududida joylashgan Marv shahri Osiyoning eng yirik shahri

hisoblangan.

66. Turkmanlarda ko'plab bayramlar bor, masalan, chaqaloq tug'ilishi yoki uy qurilishi, birinchi tish paydo bo'lishi yoki sunnat.
67. Turkmanistondagi barcha bayramlar rang-barang.
68. Turkman libosida juda ko'p taqinchoqlar bor.
69. Turkmanistonda bahor eng qulay fasl hisoblanadi.
70. Turkmanistonda yozda ham kechasi sovuq.
71. Agar Turkmanistonda bola yomg'irli havoda tug'ilgan bo'lsa, u odatda Yag'mir deb atalgan.
72. Qurbon hayiti turkmanlar uchun musulmonlarning muhim bayramidir, bu kunda hamma maroqli bo'ladi.
73. Turkman liboslari ayollar va qizlarning bosh kiyimlarini ajratib turadi.
74. Turkmaniston xalqi o'z davlatining an'alariga juda ehtiyotkor.
75. Qovun Turkmanistonda alohida mahsulot hisoblanadi, chunki u mehnatsevarlik va mahorat timsoli hisoblanadi.
76. 1994 yilda Turkmanistonda Qovun bayrami paydo bo'ldi.
77. Dagdan — Turkmanistonning faqat tog'lar yaqinida o'sadigan daraxti.
78. Turkmanistonda Chandir vodiysi bor.
79. Turkmanistonda juda mashhur faoliyat — bu yog'ochdan yasalgan idishlar yaratish.
80. Turkmanistonda joylashgan dinozavrlar platosining uzunligi 400 metrni tashkil qiladi.
81. Turkmanlarda qadimdan ilonga sig'inish bo'lgan.
82. Turkmaniston o'z hududi bo'yicha MDH davlatlari orasida 4-o'rinni egallaydi.
83. Turkmanistonda joylashgan Qora-Bog'oz-Gol ko'li eng sho'r ko'lidir.
84. Turkmanistonning Internet domeni barcha domenlar dunyosida yangilik sanaladi.
85. Turkman kelinlarida eng ko'p kumush buyumlar bor.
86. Ashxobod nafaqat Turkmaniston poytaxti, balki dunyodagi eng issiq shahardir.
87. Turkmanistonning o'ziga xos faunasi bor, u yerda ko'pchilik hayvonlar tunda yashaydi.
88. Turkmaniston agrar-industrial davlat hisoblanadi.
89. Firuza Turkmanistondagi eng yaxshi kurort hisoblanadi.
90. Turkmanistonda majburiy sug'urta tizimi mavjud.
91. Turkmaniston aholisi ish haqining 2 foizini sug'urta uchun to'laydi.
92. Turkmanistondagi yosh er-xotinning his-tuyg'ulariga sodiqdirlar.
93. Turkmanlar o'zaro munosabatlarini qonuniylashtirishdan avval moddiy bazani yaratadilar.
94. Turkmanistonda bolalar va oilalarga g'amxo'rlik qilish og'irligi erkakning yelkasida.
95. Turkmanistonda sovg'alar to'yga noz-ne'matlar bilan kelishadi.
96. Turkmaniston to'yida kelinning ota-onasi bolalarga qimmatbaho va katta sovg'a berishlari kerak.
97. Turkmaniston tabiiy gazning katta zahiralariga ega.
98. Turkmanistonda gaz quvurlari tarmog'i juda katta.

37-§. TOJIKISTON RESPUBLIKASI.

1. Quyidagi geografik nomlar qanday geografik obyektlarga tegishli ekanligini topib, daftaringizga jadval shaklida yozib oling.

Zarafshon, Xo'jand, Pomir, Qorako'l, Dushanbe, Panj, Ko'lob, Vaxsh, Sarez, Sirdaryo, Boxtar, Hisor-Oloy

Javob:

Tog'	Daryo	Ko'l	Shahar
Pomir	Zarafshon	Qorako'l	Dushanbe
Hisor-Oloy	Panj	Sarez	Xo'jand
	Vaxsh		Ko'lob
	Sirdaryo		Boxtar

38-§. AMALIY MASHG'ULOT.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING QIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI.

1. Darslik va atlasdagi Markaziy Osiyo davlatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanib daftaringizda quyidagi ko'rinishdagi jadvalni to'ldiring:

Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif.

QOZOG'ISTON
<i>Iqtisodiy geografik o'rni: qulay va noqulay jihatlari</i>
Qulay jihati: Osiyo va Yevropa davlatlarini bog'lovchi temir yo'l va avtomobil magistrallarining o'tganligi, katta transport ahamiyatiga ega Kaspiyga tutashligi, Rossiya va Xitoydek yirik davlatlarga chegaradosh ekanligi.
Noqulay jihati: dengiz va okeanlardan uzoqda, berk havzada joylashganligi, iqlimi qurg'oqchil, hududining katta qismini cho'l va chalacho'llardan iborat ekanligi.
Maydoni (ming km²)
2724,9 ming km ² (2 724 900 km ²). Jahonda 9-o'rinda.
Aholisi (mln kishi)
2020-yilda - 18,7 mln. 2022-yilda - 19,17 mln. Jahonda 63-o'rinda
Aholisi zichligi (kishi/km²)
1 km ² ga 7 kishi. (18 700 000:2 724 900=6,86)
Aholisi joylashuvining xususiyatlari
Aholi respublika janubida sug'orma dehqonchilik rivojlangan daryo vodiylarida va tog'oldi tekisliklarda hamda mamlakat shimolidagi sanoatlashgan hududlarda birmuncha zichroq joylashgan.
Relyefi
Qozog'iston relyefida tekisliklar hukmronlik qiladi, faqat respublikaning janubi-sharqiy qismida tog' tizmalari joylashgan, markaziy rayonlari relyefi esa kuchli parchalangan yassitog'likdan iborat.
Asosiy foydali qazilmalari

Qozog‘iston foydali qazilmalarga dunyodagi eng boy davlatlardan biri hisoblanadi. **Neft** va **tabiiy gaz**ning yirik konlari Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda, **toshko‘mir**ning asosiy zaxiralari (Qarag‘anda, Ekibastuz havzalari) esa markaziy mintaqada mujassamlangan. Shuningdek, Qozog‘istonning markaziy va sharqiy viloyatlari **temir, marganes, xrom, uran, mis, volfram, rux, qo‘rg‘oshin** va boshqa metallarning katta zaxiralari ega. Noruda mineral boyliklaridan **fosforit** va **oltingugurt** alohida e‘tiborga loyiq.

Suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi va asosiy manbalari

Yog‘inlarning ozligi, hududining aksariyat qismini tekisliklar ishg‘ol qilgani mamlakatning katta qismida suv resurslari tanqisligini keltirib chiqargan. Asosiy daryolari hisoblanadigan Irtish, Ili, Sirdaryo, Ural respublikaning chekka qismlaridan oqib o‘tadi, to‘yinish manbalari esa qo‘shni mamlakatlar hududida joylashgan. Eng katta ko‘llari: Kaspiy, Balxash, Olako‘l, Tengiz, Zaysan.

Elektr stansiyalarning asosiy turi

Elektr energiyasining 90% idan ortiq qismi **IES**larda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari

Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i **donchilik**. U ayniqsa mamlakatning shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarida dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari **sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik** va **bog‘dorchilik** hisoblanadi.

Chorvachilikning yetakchi tarmoqlari: **qo‘ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik**.

Sanoatining asosiy tarmoqlari

Neft-gaz, ko‘mir, qora va rangli metallurgiya, kimyo va mashinasozlik.

QIRG‘IZISTON

Iqtisodiy geografik o‘rni: qulay va noqulay jihatlari

Qulay jihatlari: Qirg‘iz Respublikasi (Qirg‘iziston) Yevrosiyo materigining o‘rta qismida asosan Tyanshan tog‘li o‘lkasi hududida joylashgan. Bu esa o‘z navbatida gidroenergiya resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligini bildiradi.

Noqulay jihatlari: dengiz va okeanlardan uzoqda, berk havzada joylashgan, xalqaro ahamiyatga ega transport magistrallari uning hududidan deyarli o‘tmaydi. Bu holat Qirg‘izistonning murakkab relyef sharoiti bilan bog‘liq.

Maydoni (ming km²)

199,9 ming km² (199 900 km²). Jahonda 86-o‘rinda.

Aholisi (mln kishi)

2020-yilda 6,6 mln (6 600 000). Jahonda 110-o‘rinda.

Aholisi zichligi (kishi/km²)

1 km² ga 33 kishi. (6 600 000:199 900=33.01)

Aholisi joylashuvining xususiyatlari

Qirg‘iziston aholisi tog‘li relyef sharoitida juda notekis joylashgan bo‘lib, aksariyat qismi tog‘ oralig‘idagi vodiylar va botiqlarda jamlangan. Aholi eng zich ravishda Farg‘ona va Chuy vodiylarida yashaydi. Bu holat o‘sha hududlarning dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoiti bilan bog‘liq.

Relyefi

Qirg‘iziston tabiatining asosiy xususiyatlari uning tog‘liligi bilan bog‘liq. Mamlakat hududining deyarli 90% i tog‘ tizmalari bilan band. Qirg‘izistonning Xitoy bilan chegarasida Tyanshanning eng baland tog‘i — G‘alaba cho‘qqisi joylashgan, u

mamlakatning eng baland nuqtasi hisoblanadi.

Asosiy foydali qazilmalari

Qirg'izistonning asosiy yer osti boyliklari **oltin, surma, simob, volfram, uran, qalayidan** iborat.

Suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va asosiy manbalari

Tyanshan tog'larida yirik muzliklarning mavjudligi hisobiga Qirg'iziston suv-energetika resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Eng katta daryolari **Norin, Chuy va Talas**. Eng katta ko'li — Qirg'iziston va uning xalqi uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan **Issiqko'ldir**.

Elektr stansiyalarning asosiy turi

Qirg'izistonda elektr energetika asosan **GES**larga tayanadi. Eng yirik GESlar Norin daryosida qurilgan.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari

Dehqonchilik tog' oraliq'idagi vodiylarida rivojlangan. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari qatoriga **bug'doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki** kiradi.

Chorvachilikning **qo'ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik** singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Sanoatining asosiy tarmoqlari

Sanoati hozirgi vaqtda asosan **tog'-kon** tarmog'iga ixtisoslashgan. Sanoatning boshqa tarmoqlaridan **yengil, oziq-ovqat va mashinasozlik** sanoatlari katta ahamiyatga ega.

TURKMANISTON

Iqtisodiy geografik o'rni: qulay va noqulay jihatlari

Qulay jihatlari: Markaziy va Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlarini bog'lovchi temir yo'l va avtomobil magistrallari o'tgan. Shuningdek, Kaspiy dengizi orqali Turkmaniston Rossiya va Kavkaz davlatlari bilan bog'langan.

Noqulay jihatlari: dengiz va okeanlardan uzoqda, berk havzada joylashgan, cho'lli tekisliklar katta maydon egallagan.

Maydoni (ming km²)

491,2 ming km² (491 200 km²). Jahonda 52-o'rinda.

Aholisi (mln kishi)

2020-yilda 6,0 mln (6 000 000). Jahonda 112-o'rinda.

Aholisi zichligi (kishi/km²)

1 km² ga 12 kishi. (6 000 000:491 200=12.21)

Aholisi joylashuvining xususiyatlari

Aholi joylashuvi mamlakatning tabiiy geografik xususiyatlari bilan belgilanadi. Aholi asosan Amudaryo, Murg'ob va Tajan daryolarining vodiylarida, Kopetdog' etagidagi tekislikda va Kaspiy sohilida istiqomat qiladi.

Relyefi

Turkmaniston hududini asosan keng tekisliklar ishg'ol etadi va uning 80% idan ortig'i Qoraqum cho'liga to'g'ri keladi. Tog'lar faqat chegarabo'yi janubiy va sharqiy hududlarida joylashgan. Janubiy tog' va tog' oldi hududlari seysmikligi bilan ajralib turadi. Ashxobod shahrida 1948-yilda sodir bo'lgan zilzila mintaqada XX asr mobaynida ro'y bergan eng falokatli zilzilalardan biri hisoblanadi.

Asosiy foydali qazilmalari

Turkmanistonning eng muhim mineral boyliklari **tabiiy gaz, neft** va turli **kimyoviy tuzlardan** iborat. Turkmaniston tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha jahon mamlakatlari orasida

4-o'rinda turadi.

Suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va asosiy manbalari

Cho'lli tekisliklar katta maydon egallagani uchun Turkmaniston suv resurslariga boy emas. Respublikadagi eng yirik suv manbai **Amudaryo** hisoblanadi. Amudaryodan to'yinadigan **Qoraqum kanali** (Qoraqumdaryo) dunyodagi eng yirik sug'orish kanalidir.

Elektr stansiyalarning asosiy turi

Yoqilg'i resurslari bilan yaxshi ta'minlangani va suv resurslarining taqchilligi tufayli respublikada elektr energiyasi faqat **IES**larda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari **donchilik, paxtachilik** (xususan, qimmatbaho ingichka tolali navlar yetishtiriladi), **uzumchilik, qorako'lchilik, yilqichilik, tuyachilik** hisoblanadi. Turkmanistonda boqiladigan Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo'lib, turkmanlarning ramzi va faxridir. Hatto respublika gerbida ham axalteki oti tasvirlangan.

Sanoatining asosiy tarmoqlari

Turkmaniston iqtisodiyotining asosini **yoqilg'i-energetika** va **kimyo sanoati** tashkil etadi. **Gaz sanoati** davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbaidir. **Neft va neftni qayta ishlash sanoati** ham Turkmanistonda yaxshi rivojlangan.

TOJIKISTON

Iqtisodiy geografik o'rni: qulay va noqulay jihatlari

Qulay jihatlari: tog'li o'lka hududida joylashgan. Bu esa o'z navbatida gidroenergiya resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligini bildiradi.

Noqulay jihatlari: Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatining yo'qligi, baland tog' tizmalari sharoitida quruqlik transportini rivojlantirishning ancha murakkabligi, harbiy-siyosiy vaziyati notinch bo'lgan Afg'oniston bilan qo'shniligi.

Maydoni (ming km²)

141,4 ming km² (141 400 km²). Jahonda 93-o'rinda.

Aholisi (mln kishi)

2020-yilda 9,4 mln (9 400 000). Jahonda 96-o'rinda.

Aholisi zichligi (kishi/km²)

1 km² ga 66.5 kishi. (9 400 000:141 400=66.47)

Aholisi joylashuvining xususiyatlari

Tog'li relyef sharoiti tufayli dehqonchilik uchun qulay yerlarning yetishmovchiligi aholi asosiy qismining tog' oralig'idagi vodiylar va botiqlarda mujassamlashuviga olib kelgan. Aholisining yuqori zichligi bilan mamlakat shimolidagi Farg'ona vodiysi, janubi-g'arbida joylashgan Hisor hamda Vaxsh vodiylari alohida ajralib turadi. Pomir tog'larida esa aholi daryo vodiylari va tog' yonbag'irlaridagi mayda qishloqlarda siyrak holda joylashgan.

Relyefi

Tojikiston tog'li mamlakat hisoblanadi. Hududining 90% idan ko'prog'ini baland tog' tizmalari egallaydi. Sharqida o'rtacha balandligi 4000 metrdan yuqori bo'lgan Pomir tog' o'lkasi joylashgan. Eng baland nuqtasi Ismoil Somoniy cho'qqisi — 7495 m. Seysmik jihatdan faol mintaqada joylashgani bois respublikada kuchli zilzilalar sodir bo'lib turadi.

Asosiy foydali qazilmalari

Tojikiston zamini turli ma'dan zaxiralariga boy. Xususan, respublika hududida **uran, oltin,**

kumush, surma, polimetall rudalarining yirik konlari mavjud. Ammo Tojikiston yoqilg'i-energetika resurslariga boy emas.

Suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va asosiy manbalari

Tojikiston Respublikasi suv va gidro energetika resurslari bilan eng yaxshi ta'minlangan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat hududidan **Panj, Vaxsh, Sirdaryo, Zarafshon** kabi daryolar oqib o'tadi. **Qorako'l, Sarez, Iskandarko'l** respublikaning eng katta ko'llaridir. Ulardan ayniqsa Pomirda joylashgan, 1911-yili kuchli zilzila natijasida Murg'ob daryosi o'zanida vujudga kelgan yirik to'g'onli ko'l — Sarez ko'li mashhur.

Elektr stansiyalarning asosiy turi

Tojikiston elektr energetikasi Qirg'iziston singari **GES**larga asoslangan. Eng yirik GESlar Vaxsh daryosida barpo qilingan va ular orasida Norak GESi alohida iqtisodiy ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari

Tojikistonda dehqonchilikning asosiy tarmoqlari: **donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik** va **uzumchilik**. Paxta va turli mevalar respublikaning muhim eksportbop mahsulotlari qatorida turadi. Sug'orma dehqonchilik tog' oralig'idagi vodiylarda yaxshi rivojlangan, ammo hududining aksariyat qismini tog'lar egallagani hamda aholi zichligining yuqoriligi haydaladigan maydonlarning taqchilligini keltirib chiqarmoqda.

Tog'-yaylov chorvachiligi **qoramolchilik** va **qo'ychilikka** ixtisoslashgan. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari ichida **pillachilik** ham katta ahamiyatga ega.

Sanoatining asosiy tarmoqlari

Mamlakat sanoatining yetakchi tarmoqlari tarkibiga **rangli metallurgiya, tog'-kon, kimyo, qurilish materiallari** va **yengil sanoat** kiradi. Mamlakatning eng katta sanoat korxonasi Tursunzoda shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi hisoblanadi. Yengil sanoat tarmoqlari orasida **to'qimachilik sanoati** muhim o'rin tutadi.

2. Qirg'iziston va Tojikiston geografik sharoitining umumiy xususiyatlarini aniqlang va sabablarini tushuntiring.

Javob:

Transport-geografik sharoiti ancha murakkab bo'lgan Tyanshan va Pomir baland tog'lari hududida joylashgan Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarining iqtisodiy-geografik o'rni, subregiondagi boshqa davlatlarning joylashuviga nisbatan birmuncha noqulay hisoblanadi.

Bu ikkala davlat O'rta Osiyoning sharqiy va janubi-sharqiy tog'li qismida joylashgan bo'lib, relyefi asosan tog'lardan iborat. O'z navbatida bunday relyef shakli shu davlatlarda gidroenergiya resurslari va chorvachilik tarmoqlarini rivojlanishiga olib kelgan.

Bu davlatlarning elektr energetikasi GESlarga asoslangan.

3. Qozog'iston va Turkmanistonning o'xshash jihatlarini aniqlang va izohlang.

Javob:

Qozog'iston bilan Turkmaniston Respublikalari Kaspiy dengiziga tutash bo'lib, bu holat ikkala davlatning iqtisodiy-geografik o'rni, transport-geografik imkoniyatlari va tabiiy-resurs salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu davlatlarning relyefida tekisliklar hukmronlik qiladi. Iqtisodiy geografik o'rni qulay,

boshqa mintaqalarni bog'lovchi temir yo'l va avtomobil magistrallari o'tgan. Elektr energiyasi IESlarda ishlab chiqariladi. Boshqaruv shakli prezidentlik respublika.

4. Markaziy Osiyo mamlakatlarini qanday ikkita guruhga ajratish mumkin? Fikringizni asoslang.

Javob:

Markaziy Osiyo davlatlarini ikkita tekislik hamda tog'li hududlarga bo'lish mumkin.

Tekislik hududlarga: *Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston, tog'li hududlarga:* *Qirg'iziston (90 %), Tojikiston (90 %) misol bo'ladi.*

Markaziy Osiyo davlatlarini barchasi o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar bo'lib, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori bo'lgan davlatlar: Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston, eng past darajadagilari esa Qirg'iziston va Tojikistonga tegishli.

5. Markaziy Osiyo davlatlari geografik sharoitining o'zaro to'ldiruvchi jihatlarini ko'rsating hamda subregion mamlakatlari o'zaro hamkorligining zarurati va muhim yo'nalishlarini asoslang.

Javob:

Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari ko'p jihatdan ularning uzaro iqtisodiy integratsiyasiga bog'liq. Subregion davlatlari o'zaro integratsiyalashuvining bir qator muhim geografik omillarini ajratish mumkin:

- iqtisodiy-geografik o'rnining umumiyligi;*
- temiryo'l va avtomobil transport tizimlarining yagonaligi, o'zaro bog'langanligi;*
- yirik daryolar va sug'orish kanallarining transchegaraviyligi;*
- tog'li va tekislikli mamlakatlar tabiiy resurslari, ayniqsa energiya manbalarining bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanligi;*
- subregion xalqlarining qardoshligi, tarixiy-madaniy jihatdan yaqinligi;*
- Orolning qurishi, cho'llashish, yerlarning sho'rlanishi, tog' muzliklarining intensiv erishi, havo va suv havzalarining zararli chiqindilar bilan ifloslanishi kabi umumiy dolzarb ekologik muammolarining mavjudligi;*
- zilzila, sel va suv toshqinlari, qor ko'chkilari va boshqa tabiiy ofatlarga birgalikda qarshi kurashishning zarurati.*

39-§. TURKIYA RESPUBLIKASI.

Turkiya haqida qiziqarli faktlar.

1. Turkiya sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan mamlakatlardan biridir.
2. Ushbu mamlakat dunyodagi yong'oq va findiqning asosiy eksportchisi hisoblanadi.
3. 1934 yilgacha turklarda familiyalar mavjud emas edi.
4. Turkiya davlati 81 viloyatga bo'lingan.
5. Turklar choyni juda yaxshi ko'radilar, shuning uchun ular kuniga 10 stakan ichishadi.
6. Turkiya juda savodli aholiga ega.
7. Turkiya - bu o'zining ajoyib plyajlari bilan mashhur bo'lgan davlat.
8. Gilos birinchi marta Evropaga Turkiyadan keltirilgan.
9. Turkiyaliklarning 95 foizga yaqini Xudoning mavjudligiga ishonishadi.
10. Futbol turklar orasida eng mashhur sport turi.
11. Turkiya tibbiyot sohasida dunyoda etakchi hisoblanadi.
12. Evropa mamlakatlari orasida eng uzoq ta'til davri Turkiyada.
13. Turkiyada siz ko'chmas mulkni boshqa Evropa poytaxtlariga qaraganda 5 baravar arzonroq sotib olishingiz mumkin.
14. Turkiya dunyodagi eng xavfsiz mamlakatdir.
15. Turk tili lotin alifbosidan foydalanadi.
16. 1509 yilda Turkiyada 45 kun davom etgan eng uzun zilzila sodir bo'ldi.
17. Turkiyadagi qo'l siqish G'arb mamlakatlari qaraganda ancha zaifroq.
18. Turklar O'rta dengizni Oq dengiz deb atashadi.
19. Oddiy turkiy janjal bir zumda janjalga aylanishi mumkin.
20. Turklar mehnatsevar odamlardir.
21. Savdolashish turk aholisining turmush tarzi deb hisoblanadi. Ular hatto o'zlarining maoshlari to'g'risida boshliqlari bilan kelishib olishadi.
22. Turkiyaning ba'zi hududlarida qor 5 oygacha yotishi mumkin.
23. Turklarda yangi yil va tug'ilgan kunlar bo'lmaydi. Bu bayramlar u yerda nishonlanmaydi.
24. Turkiyani 4 ta dengiz yuvadi: Qora, Marmara, O'rta er dengizi va Egey.
25. Birinchi marta kofe Turkiyaga keltirildi.
26. Turkiya 10 ta chang'i kurorti bilan mashhur.
27. Eng qimmat ipak gilam Turkiyaning Canya muzeyida saqlanadi.
28. Birinchi xristian kengashi aynan shu davlatda tashkil etilgan.
29. Turkiyaning plyajlari 8000 kilometr uzunlikda.
30. Suzishga qodir turk turk mushuki bor.
31. Dunyoda 90 millionga yaqin odam turk tilida gaplashadi.
32. Arxitektura yodgorliklari soni bo'yicha Turkiya etakchi o'rinni egallaydi.
33. Har bir turk restoranida bepul non, choy va suv beriladi.
34. Ushbu shtatdagi ko'chmas mulk solig'i yiliga atigi bir marta to'lanadi.
35. Ushbu mamlakatda yiliga taxminan 2 million avtomobil ishlab chiqariladi.
36. Turkiya 3 marta harbiy to'ntarishni boshdan kechirdi.
37. Faqatgina 2001 yilda ushbu shtatda o'lim jazosi bekor qilindi.
38. Turkiyalik yangi turmush qurganlarga to'y uchun oltin beriladi.
39. 23 aprel Turkiya bulutsiz baxt bayramini nishonlamoqda. Shu kuni kattalar bolalar bilan ko'p vaqt o'tkazadilar.
40. Turkiyada samolyot ishlab chiqaradigan zavod mavjud.

41. VII asrda zamonaviy Turkiya hududida odamlar sigirlarni uyushtirgan.
42. Turkiyada yonilg'i quyish uchun mashinadan chiqish shart emas. Har bir yoqilg'i quyish shoxobchasida yonilg'i quyish shoxobchalari mavjud.
43. Turkiyada Agave daraxtlari qishda gullaydi.
44. Turkiyaning janubiy qirg'og'i hududida panelli va g'ishtli uylar qurish taqiqlanadi.
45. Turkiya, betaraf bo'lib, Ikkinchi Jahon urushida qatnashmadi.
46. Formula-1 poygalari Turkiyada bo'lib o'tadi.
47. Turkiyada minerallarning taxminan 100 navlari mavjud.
48. Ozarbayjonlik eng yosh turkiyalik milliarder hisoblanadi.
49. 1983 yilda Turkiya barcha kazinolarni qonuniylashtirishga muvaffaq bo'ldi.
- 50 Zamonaviy turk tilida juda ko'p qarz so'zlari mavjud.
51. Turkiyada harbiy yurishlar otlarni tortib olish bilan birga keladi.
- 52 Turkiyaning Mardin shahrida bugungi kungacha siz Iso Masihning ona tili bo'lgan oromiy nutqini eshitishingiz mumkin.
53. Afsonaviy Troya zamonaviy Turkiya hududida joylashgan.
54. 1950 yildan boshlab har 100 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar soni kamayib bormoqda. 1950 yilda har 100 ayolga 101 dan ortiq erkak to'g'ri kelgan. 2015 yilda allaqachon 97 kishidan kam erkak bor.
55. Turkiya aholisi bir-birlari bilan salomlashganda, yonoqlariga tegib, ikki marta quchoqlashadi.
56. Turkiyada joylashgan Marash shaharchasi uzoq muddatli muzqaymoq bilan mashhur.
- 57 Eng mazali zaytun mevalari Turkiyada etishtiriladi.
58. Turkiya non mahsulotlari iste'mol qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi.
59. Balandligi 2 metr 45 santimetr bo'lgan turk dunyodagi eng uzun odamdur.
60. Turkiyadagi armiya Yevropa davlatlari orasida eng qudratli kuchdir.
61. Turkiya dorixonasida ular qon bosimini o'lchashlari va grippga qarshi dorilarni bepul berishlari mumkin.
62. Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan akvarium Yevropadagi eng katta deb nomlanadi.
- 63 Turkiyada uyga kirayotganda poyabzalingizni echib, oyoq kiyimingizni eshik oldida qoldirish odat tusiga kirgan.
64. Turkiya - Oliy sudning ayol sudyasiga ega bo'lgan birinchi davlat.
65. Turkiya dunyodagi eng yirik to'qimachilik ishlab chiqaruvchisi.
66. 3,5 milliondan ortiq turkiyalik fuqaro Germaniyada rasman yashaydi.
67. Aynan Turkiyada dunyodagi birinchi universitet tashkil etilgan.
68. Uchuvchisiz raketani uchgan birinchi kishi turkiyalik erkak edi.
69. Vladimir Jirinovskiy turk tilini yaxshi biladi.
70. Ushbu mamlakatda findiqning taxminan 70% etishtiriladi.
71. Turkiya savdo sohasida rivojlangan mamlakat.
72. Dunyoning yettita mo'jizasidan 2 tasi Turkiyada joylashgan.
- 73 Turkiyada turli xil ko'zlarga ega mushuklar mavjud.
74. Turkiyada yashovchi erkaklar egri ayollarni yaxshi ko'radilar.
75. Turkiyada har bir burchakda sartaroshlar bor, chunki aholi go'zallik uchun ko'p vaqt ajratishadi.
76. Turkiya aholisi tobora ko'proq chet ellik ayollarga uylanishmoqda.
77. Turk ayollari epilatsiyani faqat oyiga bir marta amalga oshiradilar. Ular juda yuqori sifatli jarayonga ega.

- 78 Turkiyada gladiator qabristoni mavjud.
- 79 Bu mamlakatda juda ko'p gullar bor. Ularning 9000 ga yaqin navlari mavjud.
80. Turk oshxonasi dunyodagi eng yaxshi uchlikka kirdi.
- 81 Turkiyada 17-asrda kofe ichish taqiqlangan. Ushbu qonunni buzganlar qatl etildi.
82. Turklarning bir-birlarini ismlari bilan chaqirishlarini kamdan-kam uchraydi.
83. Turkiyada Pamukkale bor - mashhur termal buloqlar.
84. Turkiyada joylashgan Agri tog'i bu mamlakatning eng baland nuqtasidir.
85. Dunyoning eng yaxshi apelsinlari Turkiyaning Finike shahrida yetishtirilgan.
86. Qadimgi davrlarda Turkiyada amazonkalar bo'lgan.
87. Agar biror kishi Turkiyadan sayohatga chiqsa, an'anaviy ravishda suv havzasini to'kish kerak.
- 88 Turkiyada mushuklar yashaydigan noyob Van ko'l mavjud.
89. Faqat 1923 yilda turklar millatga aylandi.
90. Turk va rus tillarining fonetikasi to'liq mos keladi.
91. Moskvadan Turkiyaga uchish uchun taxminan 3 soat vaqt ketadi.
92. Turkiyada rasmiy din mavjud emas.
93. Turkiya xalqi barcha savdo-sotiqalarning jekidir, ular hamma narsani soxtalashtirishi mumkin.
94. Bunday holatda, uyali qo'g'irchoqlarga o'xshagan raqamlar mashhur deb hisoblanadi.
95. Turkiyaning o'ziga xos kurash turi bor: neft uchun kurash.
96. Kasikchi olmosi Turkiyaning Istanbul shahrining saroyida taqdim etilgan.
97. Bu mamlakatda to'ylarda ziyofatdan ko'ra ko'proq raqslar bor.
98. Yomon ko'z va fezdadan olingan tumorlar Turkiyada eng keng tarqalgan yodgorlikdir.
99. Bolaligidanoq turkiyalik ota-onalar bolalarni futbol tomosha qilish uchun tashviqot qilishni boshladilar.

1. Turkiya iqtisodiy-geografik o'rnining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Mazkur omil mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Shu kabi juda qulay iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lgan mamlakatlarga misollar keltiring va ularni xaritadan ko'rsating.

Javob:

Turkiya Respublikasining eng muhim o'ziga xos jihatlaridan biri — uning geografik o'rnini. Hududining 97% i Janubi-g'arbiy Osiyoda, 3% qismi esa Sharqiy Yevropada joylashgan. Osiyodagi hududi asosan Kichik Osiyo yarimoroliga to'g'ri keladi, Yevropa qismi esa Bolqon yarimorolida joylashgan bo'lib, Sharqiy Frakiya deb ataladi. Turkiya Respublikasining turli qit'alarda joylashgan qismlarini Qora va O'rta dengizlarini o'zaro bog'laydigan Marmar dengizi, Bosfor va Dardanell bo'g'izlari ajratib turadi. Mamlakat qirg'oqlari shimoldan Qora dengiz, g'arbdan Egey dengizi, janubdan O'rta dengiz suvlari bilan yuviladi.

Mamlakat iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi uning bir nechta dengizga tutashligi, hududidan Yevropa va Osiyoni, O'rta va Qora dengiz havzalarini bog'laydigan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan transport yo'llarining o'tganligi bilan belgilanadi.



Chegaradosh davlatlarning xaritada belgilanishi	Nomi	Gidrografik chegaralarining xaritada belgilanishi	Nomi
1	Ozarbayjon	A	Qora dengiz
2	Gruziya	B	O'rta dengiz
3	Armaniston	D	Egey dengizi
4	Eron	E	Iskandarun qo'ltig'i
5	Iroq	G	Antalya qo'ltig'i
6	Suriya	C	Marmar dengizi
7	Bolgariya	F	Bosfor bo'g'izi
8	Gretsiya	K	Dardanelli bo'g'izi


2. Turkiyaning tabiiy sharoiti aholi joylashuvi va xo'jalik ixtisoslashuviga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nima uchun mamlakatning shimoli-g'arbiy qismida aholi juda zich joylashgan? Sanoat Turkiyaning ko'proq qaysi hududlarida rivojlangan? Nega?

Javob:

Aholi Turkiya hududi bo'ylab ancha notekis joylashgan. Mamlakatning Marmar dengiziga tutash shimoli-g'arbiy qismida aholi zichligi juda yuqori. Jumladan, mamlakat aholisining 1/5 qismi Sharqiy Frakiyada istiqomat qiladi. Markaziy va sharqiy tog'li hududlarida aholi ancha siyrak. Bunday tafovutlarga hududlarning tabiiy sharoiti va iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidagi farqlar katta ta'sir ko'rsatgan.

Sanoat mamlakatning g'arbida yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning ichki hududlari agrar iqtisodiyotga ega.

3. Turkiya aholisining milliy tarkibi qaysi diagrammada to'g'ri aks ettirilganini toping.



Javob:

B diagrammada to'g'ri ko'rsatilgan.

Aholisining etnik tarkibida turklar ko'pchilikni tashkil etadi (75% dan ortiq). Jami aholining 15% idan ko'proq qismini tashkil etadigan kurdlar mamlakat janubi-sharqida istiqomat qiladi.

40-§. AMALIY MASHG'ULOT.

ERON, AFG'ONISTON VA POKISTONNING QIYOSIY GEOGRAFIK TAVSIFI.

Eron, Afg'oniston va Pokiston davlatlari haqida berilgan ma'lumotlar hamda Atlasdagi xaritalardan foydalangan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Eron, Afg'oniston va Pokistonning iqtisodiy-geografik o'rnini taqqoslang. Qaysi davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rni qulay hisoblanadi? Aksincha, qaysi davlatda biroz noqulay? Nima uchun? Fikringizni xarita yordamida tushuntiring.

Javob:

IQTISODIY-GEOGRAFIK O'RNI		
Eron	Afg'oniston	Pokiston
Eron qirg'oqlari janubda Arabiston dengizi va Fors qo'ltig'i, shimoli-g'arbda Kaspiy dengizi suvlari bilan yuviladi.	Afg'oniston Janubi-g'arbiy Osiyoda joylashgan, bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyati yo'q. Mamlakat hududida Osiyoning turli qismlaridagi davlatlarni bog'lovchi transport yo'llari qurilsa, uning iqtisodiy geografik o'rni ancha yaxshilanishi mumkin.	Pokiston Janubiy Osiyoda, asosan Hind daryosi havzasida joylashgan. Qirg'oqlari janubda Arabiston dengizi suvlari bilan yuviladi.

Qaysi davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rni qulay hisoblanadi? Aksincha, qaysi davlatda biroz noqulay? Nima uchun?

<i>Iqtisodiy-geografik o‘rni Janubi-g‘arbiy, Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini bog‘laydigan transport yo‘llari o‘tgan hisobiga qulay.</i>	<i>Dengiz va okeanlarga chiqish imkoniyati mavjud emas. Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat juda murakkab va beqaror bo‘lib, o‘tgan asrning 70-yillaridan buyon davom etayotgan fuqarolik urushi holati bilan tavsiflanadi.</i>	<i>Geografik o‘rnining ijobiy xususiyatlari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan dengiz va quruqlikdagi transport yo‘llari o‘tganligi, salbiy jihatlari siyosiy vaziyati beqaror mintaqada joylashganligi. Mamlakatning amaldagi siyosiy geografik holati Hindiston bilan Kashmir hududi borasidagi ko‘p yillik ziddiyat ta‘sirida shakllangan.</i>
--	---	---

2. Jadvalni to‘ldiring va quyidagi savollarga javob topib, topshiriqlarni bajaring.

Davlatlar	Maydoni, ming km ²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km ²	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Eron	1648	84,2	...	75	...	...	...
Afg‘oniston	652,8	38,9	...	24	...	...	...
Pokiston	803,9	220,9	...	37	...	...	...

a) ushbu davlatlardan qaysi biri aholi zichligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega? Bunga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

b) qaysi davlatda qishloq aholisining ulushi eng ko‘p? Bu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan nechog‘lik aloqador?

Javob:

Davlatlar	Maydoni, ming km ²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km ²	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi %	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Eron	1648	84,2	51,0	75	63,15	25	21,05
Afg‘oniston	652,8	38,9	59,5	24	9,336	76	29,564
Pokiston	803,9	220,9	274,7	37	81,733	63	139,167

Dastlab jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida aholi zichligi topiladi. Buning uchun bizga aniqlanayotgan davlatlarni yer maydoni va jami aholisi soni kerak bo'ladi. Aholi zichligini topish uchun esa berilgan davlat yer maydonini jami aholi soniga bo'lamiz.

Eron - $84\,200\,000 : 1\,648\,000 = 51,09$ kishi;

Afg'oniston – $38\,900\,000 : 652\,800 = 59,58$ kishi;

Pokiston – $220\,900\,000 : 803\,900 = 274,78$ kishi.

Endi berilgan aholi soni va urbanizatsiya darajasiga qarab shahar aholisi sonini aniqlaymiz. Buning uchun proporsiya tuzib olamiz. Quyidagi ko'rinishda.

Eron davlati: (X – topshimiz kerak bo'lgan shahar aholisi soni, 75 % - shahar aholisi ulushi, **84,2 mln** – jami aholi soni, **100 %** - jami aholi ulushi)

$$\begin{array}{l} X \text{ ----- } 75 \% \\ 84,2 \text{ mln} \text{ ----- } 100 \% \end{array} \quad x = \frac{84,2 \text{ mln} \times 75\%}{100\%} = 63,15 \text{ mln}$$

Afg'oniston davlati: (X – topshimiz kerak bo'lgan shahar aholisi soni, 24 % - shahar aholisi ulushi, **38,9 mln** – jami aholi soni, **100 %** - jami aholi ulushi)

$$\begin{array}{l} X \text{ ----- } 24 \% \\ 38,9 \text{ mln} \text{ ----- } 100 \% \end{array} \quad x = \frac{38,9 \text{ mln} \times 24\%}{100\%} = 9,336 \text{ mln}$$

Pokiston davlati: (X – topshimiz kerak bo'lgan shahar aholisi soni, 37 % - shahar aholisi ulushi, **220,9 mln** – jami aholi soni, **100 %** - jami aholi ulushi)

$$\begin{array}{l} X \text{ ----- } 37 \% \\ 220,9 \text{ mln} \text{ ----- } 100 \% \end{array} \quad x = \frac{220,9 \text{ mln} \times 37\%}{100\%} = 81,733 \text{ mln}$$

Yuqoridagi ma'lumotlarni aniqlab olganimizdan so'ng qolgan grafalardagi qishloq aholisi ulushi va sonini keltirib chiqarish osongina kechadi. Qishloq aholisi ulushini topish uchun jami ya'ni 100 % dan urbanizatsiya darajasini ayirib chiqasiz. Qishloq aholi sonini topish uchun esa, jami aholi sonidan shahar aholi sonini ayirasiz javobi kelib chiqadi.

a) Jadvaldan ko'rinib turganidek yuqoridagi davlatlari ichida aholi zichligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega davlat **Pokiston**.

b) Qishloq aholisining ulushi eng ko'p bo'lgan davlat **Afg'oniston**.

3. Darslik matni va atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib Eron, Afg'oniston va Pokistonga mos ma'lumotlarni toping va tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

A) Eron

B) Afg'oniston

D) Pokiston

№	Ma'lumotlar	Mos davlat belgisi
1	<i>Janubiy Osiyoda joylashgan</i>	D
2	<i>Kaspiy dengizi suvlari qirg'oqlarini yuvadi</i>	A
3	<i>Ichki kontinental davlat</i>	B
4	<i>Aholisining diniy tarkibida shia musulmonlari yetakchi</i>	A
5	<i>Sanoatining yetakchi tarmog'i yengil sanoat</i>	D
6	<i>Qorako'l terilarni tayyorlashda jahonda 1-o'rinda turadi</i>	B
7	<i>Ma'muriy-siyosiy tuzilishi jihatidan federativ davlat</i>	D
8	<i>Davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbai neft va gaz eksporti hisoblanadi</i>	A
9	<i>Mamlakatning katta qismini Hind daryosining vodiysi egallaydi</i>	D
10	<i>Shahar joylarida aholining 1/4 qismi yashaydi</i>	B
11	<i>Sanoat ishlab chiqarishi juda sust rivojlangan</i>	B
12	<i>Aholisining 60% idan ko'prog'ini forslar tashkil etadi</i>	A
13	<i>Qishloq xo'jaligi bug'doy, sholi, shakarqamish, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan</i>	D
14	<i>Qora ikra eksporti bo'yicha jahonda yetakchi o'rinda turadi</i>	A
15	<i>Aholisining yillik tabiiy ko'payish darajasi 2,5% dan yuqori</i>	B

4. Afg'oniston iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday omillarga tayanishi mumkin va ulardan unumli foydalanilishi uchun qanday sharoitlar yaratilishi lozim? Mazkur davlatda siyosiy vaziyatning barqaror bo'lishi mamlakatimiz va butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy-geografik o'rni qanday ta'sir ko'rsatadi?

Javob:

Afg'oniston iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan agrar davlat. Iqtisodiy rivojlanishida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam katta ahamiyatga ega.

Afg'oniston iqtisodiyoti qanday edi?

So'nggi yillarda Afg'oniston iqtisodiyoti zaiflik va yordamga qaramlik natijasida shakllanib keldi.

JST ma'lumotlari asosida oxirgi 20 yillik bo'yicha mamlakat YaIM o'sishi tahlil qilib chiqilganda ham, 2003 yildan keyingi 10 yillik davr mobaynida mamlakat iqtisodiyoti o'rtacha 9 foizdan yuqori o'sdi. Bundan keyingi yillarda esa (xalqaro yordamlar kamayishi ta'sirida) o'sish sur'ati sekinlashdi va 2015–2020 yillar oralig'ida yillik o'rtacha ko'rsatkich 2,5 foizga tushib qoldi.

2020 yilda aholisi 40 millionga yaqin bo'lgan Afg'onistonda YaIM hajmi 19,8 mlrd dollar bo'lib, aholi jon boshiga bu ko'rsatkich 509 dollarni tashkil qiladi.

Mamlakat tashqi savdo aylanmasiga e'tibor qaratilsa, 2019 yilda mamlakat eksportining umumiy hajmi 870 mln dollarni, import esa 8,6 mlrd dollar (salbiy tashqi savdo saldosi deyarli 10 baravar yuqori) atrofida bo'lgan.

Bundan tashqari, siyosiy nizolar sabab xavfsizlik uchun ajratiladigan budjet iqtisodiyotining 29 foizini tashkil qilgan.

Qochqinlar inqirozi

«Tolibon»ning hokimiyatga kelishi fonida Qo'shma Shtatlar Afg'oniston markaziy bankining AQShda saqlanayotgan aktivlarini muzlatib qo'ydi. Ma'lumotlarga ko'ra, aprel oyi oxirida Afg'oniston markaziy bankining valuta zaxiralari 9,4 mlrd dollarni tashkil etgan. Shundan so'ng AQShning ta'siri kuchli bo'lgan Xalqaro valuta jamg'armasi (XVF), Jahon banki (JB) kabi tashkilotlar tomonidan Afg'oniston iqtisodiyotiga ko'rsatib kelinayotgan yordamlar ham to'xtatildi. Natijada valuta hisoblari muzlatilishi ortidan Afg'onistonda naqd pul yetishmasligi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari va yonilg'i narxi keskin qimmatlashib ketdi.

XVFning oxirgi prognozlariga ko'ra, joriy yilda Afg'oniston iqtisodiyoti 30 foizga qisqarishi kutilmoqda. Bu millionlab odamlar qashshoqlashib ketishi va ayanchli gumanitar inqirozga olib kelishi mumkin, bu esa birinchi navbatda qochqinlar soni ortishiga sabab bo'ladi.

Qochqinlarning katta oqimi ularni qabul qiladigan qo'shni respublikalarda davlat resurslariga yuk bo'lishi, mehnat bozorida bosimni kuchaytirishi va ijtimoiy keskinlikka olib kelishi mumkin.

Av gust oyidagi eng yomon ssenariyda mintaqada yana 500 ming yangi afg'on qochqini paydo bo'lishi kutilayotgani aytilgan bo'lsa, ayni paytda bu raqamlar qariyb 1 million kishigacha yetishi mumkinligi taxmin qilinmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, havo harorati pasayib borishi natijasida uysiz qolgan afg'onlarning ahvoli yomonlashmoqda. Yordamga muhtoj afg'onistonliklar soni 20 millionga yetgan va ularning soni har kuni o'sishda davom etmoqda.

Qo'shni mamlakatlar qochqinlarni qabul qilishi mumkinmi?

Afg'on qochqinlarini qabul qilishi mumkin bo'lgan qo'shni mamlakatlar sifatida asosan Tojikiston, Pokiston va Eron ko'rilmogda. XVF hisob-kitoblariga ko'ra, bu Tojikiston uchun 100 million dollar, Eronga 300 million dollar va Pokistonga 500 million dollarga tushishi mumkin. Shuningdek, qochqinlarni qabul qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari asosiy nomzodlar sifatida ko'rilyotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati buni mutlaqo xohlamaydi.

Mintaqa mamlakatlaridan faqatgina Tojikistonda afg'onlarni qabul qilish bo'yicha qisman xohish bo'lsa-da, mamlakatning iqtisodiy holati bunga to'la darajada imkon bermaydi. Shu sabab Tojikiston xalqaro moliyaviy yordam olmaguncha ko'p sonli qochqinlarni qabul qila olmasligini ma'lum qilgan.

O'zbekiston hukumati ayni paytda afg'on qochqinlarini qabul qilish rejalari mavjud emasligini bildirgan. Bunga asosli sabablarni ham keltirish mumkin.

Birinchidan, qochqinlarni joylashtirish O'zbekiston budjeti uchun katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan bu borada aniq dastur va miqdorlarga asoslangan amaliy ishlar qilinmadi, ya'ni xalqaro moliyaviy yordam qaysi davlatlar tomonidan ko'rsatilishi yoki uning aniq miqdori mavjud emas. 2015 yildagi og'ir migratsion inqirozdan keyin Yevropa Ittifoqi afg'on qochqinlarini qabul qilmasligini va ularni qo'shni mamlakatlarga joylashtirish uchun yordam ko'rsatish bo'yicha ishlar qilinishini aytishgan bo'lsa-da, yakuniy va yakdil qaror qabul qilinmadi.

Ikkinchidan, afg'on qochqinlarini qabul qilish mamlakatdagi ijtimoiy kayfiyatga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Aholining ko'pligi afg'onlardan xavfsirashadi va ularga nisbatan ishonchsizlik yuqori darajada.

Uchinchidan, O'zbekiston oldida hech qanday xalqaro majburiyat ham mavjud emas. Mamlakat BMTning qochqinlar to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilmagan.

To'rtinchidan, pandemiya holatidagi sanitariya-epidemiologiya muammolari, transchegaraviy jinoyatlar va giyohvand moddalar savdosi kengayish xavfining ortishi kabi muammolarni ham ko'rsatish mumkin.

Afg'onistondagi vaziyatning Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy holatiga ta'siri

Afg'oniston qadimdan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan faol savdo aloqalarida ishtirok etib kelgan va o'ziga xos ko'priq vazifasini ham o'tagan. Ayni paytdagi iqtisodiy beqaror holat bir qancha salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi:

Birinchidan, Afg'oniston ilgari katta miqdordagi xorijiy yordam olgan. Birgina Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti davlatlari 2001 yildan 2019 yilgacha Afg'onistonga 65 milliard dollar xayriya qilgan. Bu mablag'ning katta qismi savdo aloqalari orqali yaqin qo'shni mamlakatlar Eron, Pokiston, Turkmaniston va O'zbekiston bozoriga kirib borgan. Ayni vaziyatda esa ko'plab davlatlar va tashkilotlar Afg'onistonga «terrorizmni moliyalashtirish»dan o'zlarini tiyish uchun pul ajratishni to'xtatganini ma'lum qilgan.

Ikkinchidan, beqaror siyosiy holat Afg'oniston bilan qo'shni mamlakatlarning xalqaro imiji va ichki investitsion muhitiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, Afg'oniston inqirozi natijasida Pokistonning dollardagi obligatsiyalari narxi taxminan 1 foizga, O'zbekistonning 2030 yilda to'lanadigan dollarlik obligatsiyalari esa qariyb chorak foizga kamayib ketdi.

Shuningdek, beqarorlik xorijiy investorlar va biznes vakillariga Markaziy Osiyo davlatlariga investitsiya kiritishdan o'zlarini tiyishga majbur qiladi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining oxirgi uchrashuvlarida Afg'oniston ham bevosita mintaqadagi savdo aloqalarida teng huquqli a'zo davlat sifatida ko'rilyotgandi. Xususan, Qozog'istonning Afg'onistonga eksporti 2017 yilda 560 mln dollar, 2018 yilda 510 mln dollarni, 2019 yilda esa qariyb 400 mln dollarni tashkil etgan. O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi 2020 yildagi o'zaro tashqi savdo aylanmasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 777 mln dollarni tashkil etib, shundan 774,6 mln dollar eksport ulushiga, 2,3 mln dollar esa import hissasiga (ijobiy TSA saldos 337 barobar ko'p) to'g'ri kelgan. Moliyaviy holat yomonlashishi oqibatida esa Afg'onistonning qo'shni respublikalardan qarzdorligi ortib bormoqda. Xususan, mamlakatdagi DABS energetik korporatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, birgina Afg'onistonning qo'shni davlatlar oldida elektr energiya uchun qarzi 62 mln dollarga yetgan. Ta'kidlanishicha, Tojikistonga 11,2 mln dollar, O'zbekistonga 9,9 mln dollar va Turkmanistonga 5,1 mln dollar to'lab berishi kerak. Bu kabi holatlar ortib borishi esa moliyaviy jihatdan qudratli bo'lmagan qo'shni respublikalar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkaza boshlaydi. Xavf yuqoriligi sabab mahalliy tadbirkorlar tavakkalchilik asosida savdo-sotiq uchun mablag' jalb qilishda katta risklarga duch keladi (avval ham risklar yuqori bo'lgan, ammo xalqaro yordamlar evaziga afg'on xalqida hozirgiga qaraganda ko'proq mablag' bor edi).

To'rtinchidan, Afg'oniston hududi Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'laydigan o'ziga xos yo'lak vazifasini bajaradi. Birgina «Termiz-Hayraton» ko'prigidagi nazorat-o'tkazish punkti orqali har yili 5 million tonnagacha turli yuklar tashilgan, ularning qariyb 70 foizi Afg'oniston orqali Pokiston portlariga olib o'tilgan. Gumanitar inqirozning kuchayishi ortidan esa tahdidlar ortib boraveradi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishi haqida gapirishga hali ancha erta va bu borada asosli omillar ham mavjud emas. Gumanitar inqirozning kuchayishi ortidan qochqinlar sonining ortib borishi esa qo'shni mamlakatlarga nisbatan salbiy ta'sir o'tkazadi va bosimni kuchaytiradi.

41-§. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI.

Xitoy haqida qiziqarli faktlar.

1. Xitoy dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiya hisoblanadi.
2. Bu mamlakatda topilgan arxeologik topilmalarning yoshi 8000 yilgacha.
3. Xitoyda badavlat odamlar o'xshashlarni yollab, kerak bo'lsa, o'zlariga emas, qamoqqa jo'natadi.
4. Xitoy San-Fransisko havosining 29% ifloslanishi uchun javobgardir.
5. Xitoyda ingliz tilini biladiganlar AQShdagiga qaraganda ko'proq.
6. Xitoyda qizni haftasiga 31 dollarga ijaraga oladigan sayt bor.
7. Xitoy dunyodagi eng zich joylashgan davlat hisoblanadi.
8. Tualet qog'ozi birinchi marta Xitoyda 1300-yillarda paydo bo'lgan.
9. Birinchi marta porox shu holatda paydo bo'lgan.
10. Xitoy faqat bir vaqt mintaqasida yashaydi.
11. Oq rang Xitoyda motam sanaladi.
12. Xitoyda hayotning zaruriy qismi choy ichishdir.
13. Xitoyliklar quyosh botishni yoqtirmaydilar. Quyoshda kuyish ular orasida moda hisoblanmaydi.
14. Xitoyda nikohlar ko'pincha kech tuziladi.
15. Xitoyda bayramning rangi qizil.
16. Xitoyda eng past ajralish darajasi.
17. Xitoyda omad timsoli ko'rshapalak hisoblanadi.
18. Xitoy jahon qo'ziqorin ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.
19. Xitoy navbatlarida qabul qilinmaydi.
20. Xitoy aholisining 70 foizi ko'zoynak taqib yuradi.
21. Xitoyda jigar va buyraklarni iste'mol qilishni afzal ko'rmaydilar.
22. Xitoyliklar hayvonlarga nisbatan rahmdil emas. Shuning uchun ular qo'shimcha pul topish uchun hayvonlardan foydalanadilar.
23. Xitoyda sabzavotlar hech qachon xom iste'mol qilinmaydi. Ular qaynatiladi yoki bug'lanadi.
24. Xitoyda siz shimlarida teshiklari bor bolalarni ko'rishingiz mumkin, shuning uchun ular xohlagan vaqtda o'zlarini yengillashtirishlari mumkin.
25. Xitoyda dam olish hamma bir vaqtda, Yangi yil oldidan boshlanadi.
26. Chop tayoqchalari Xitoyda ixtiro qilingan.
27. Guruch ko'pchilik xitoy taomlarining asosidir.
28. Xitoyda bola tug'gan ayollar tug'ilgandan keyin 30 kun davomida yotoqda yotish odat tusiga kirgan.
29. Xitoyliklar spirtli ichimliklarni faqat yirik kompaniyalarda ichishadi.
30. Xitoyda vegetarianlar ulushi katta.

Qadimgi Xitoy haqida 20 ta qiziqarli fakt

1. Futbol qadimgi Xitoyda paydo bo'lgan, chunki qadimgi odamlar bu o'yinni 1000 yil oldin o'ynashgan.
2. Qo'ziqorinlar qadimgi xitoyliklarning sevimli taomidir.
3. Qadimgi xitoy kalendarlarida yil qishki kun to'xtashidan keyingi birinchi yangi oy bilan boshlangan.

4. Qadimgi Xitoyda ajdaho sharaflari ramz hisoblangan. U mifologiyada tasvirlangan.
5. Qadimgi Xitoyning asosiy ramzlari qushlar edi.
6. Qadimgi Xitoyda haramlar bo'lgan.
7. Qadimgi Xitoy mifologiyasida aytilishicha, oyna uyni himoya qiladi.
8. O'sma ko'priklarni qadimgi xitoyliklar ixtiro qilgan.
9. Qog'oz qadimgi xitoylar tomonidan yaratilgan.
10. Ipak yasash qadimgi xitoylarning mahoratidir.
11. Taxminan 6000 yil oldin qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi paydo bo'lgan.
12. Qadimgi xitoyliklar lakni ixtiro qildilar. Poyafzal va yog'och buyumlarni namlashdan himoya qilish uchun ular bilan qoplangan.
13. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari falsafa rivojiga katta hissa qo'shgan.
14. Qadimgi Xitoyda ipak kontrabandasi uchun odamlar shafqatsizlarcha qatl etilishi mumkin edi.
15. Qadimgi xitoyliklar qo'ziqorinni taxminan 3000 yil oldin iste'mol qila boshlaganlar.
16. Konfutsiy qadimgi xitoylik donishmand edi.
17. Kompas Qadimgi Xitoyda yaratilgan.
18. Qadimgi Xitoyda yotoqlar isitish va markaziy isitish bilan jihozlangan.
19. Oq choy qadimgi xitoyliklarning sevimli ichimlikidir.
20. Qadimgi Xitoyda dunyodagi birinchi seysmograf ixtiro qilingan.

Buyuk Xitoy devori haqida 20 ta qiziqarli fakt

1. Buyuk Xitoy devorining umumiy uzunligi 8851 km 800 m ga etadi.
2. Buyuk Xitoy devori dunyodagi eng uzun sun'iy inshootdir.
3. Devorni qurish uchun tosh bloklarni yotqizishda o'chirilgan ohak qo'shilgan yelimli guruch pyuresi ishlatilgan.
4. Bu bino dunyodagi eng uzun va eng katta qabriston hisoblanadi.
5. Xitoy devorini koinotdan ko'rish mumkin.
6. Buyuk Xitoy devori YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan.
7. Xitoy devori Xitoyning tan olingan ramzi hisoblanadi.
8. 2004 yilda Xitoy devoriga eng yirik turistik tashrif qayd etilgan bo'lib, unga 41,8 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan.
9. Xitoy devori qurilishiga 2 ming yilga yaqin vaqt sarflangan.
10. Buyuk Xitoy devori qadimgi dunyo mo'jizalaridan biri emas.
11. Devor bir necha marta nomini o'zgartirgan.
12. Birinchi yevropaliklar Xitoy devori hududiga qadam bosa olmadilar.
13. 1644 yilda Buyuk Xitoy devori qurilishi tugallandi.
14. Xitoydagi devor ko'plab sport turlari uchun joy bo'lgan.
15. Xitoy devori hududidagi janglar uzoq yillar davomida olib borilgan.
16. Xitoy devori miloddan avvalgi 221 yilda qurila boshlandi.
17. Xitoy devorida tungi tashriflar tashkil etiladi.
18. Harbiylar Buyuk Xitoy devorini qurganlar.
19. Mahalliy valyutada Xitoy devorini ko'rishning iloji yo'q.
20. Devor yaxshi akustikaga ega.

Xitoy tili haqida 20 ta qiziqarli faktlar.

1. Xitoy tilida taxminan 1,4 milliard kishi gaplashadi.
2. Xitoy tili eng qadimiy tillardan biridir.
3. Bu tilda juda ko'p dialektlar mavjud.
4. 100 mingga yaqin xitoycha belgilar mavjud.
5. Xitoy tilining o'ziga xos xususiyati uning tonalligidir.
6. Xitoy tili oddiy grammatikaga ega.
7. Xitoy tilidagi belgilarning aksariyati o'xshash.
8. Qiyinchiliklar haqida gapiradigan personajda bitta tom ostida 2 ayol tasviri bor.
9. Xitoy tilida tinish belgilari yo'q.
10. Dunyoda xitoycha klaviatura mavjud emas.
11. Bu til Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.
12. Xitoy tili haqli ravishda dunyodagi eng qiyin tillardan biri hisoblanadi.
13. Xitoy tilida "Ha", "Yo'q" so'zlari yo'q.
14. Xitoydagi ko'pchilik familiyalar bir bo'g'inda yozilgan.
15. Xitoy tilida so'zlashuvchilar yaxshi eshitish qobiliyatiga ega.
16. Xitoy tili dunyodagi barcha tillar orasida ikkinchi eng mashhur tildir.
17. Xitoy tili maqom va hurmatli til hisoblanadi: u BMTning barcha ishchi tillari ichida 6-tili hisoblanadi.
18. Xitoy tilida alifbo yo'q.
19. Xitoy tilida 7 dialekt guruhi mavjud.
20. Intonatsiyaga qarab, xitoy tilidagi so'zlar turlicha jaranglashi mumkin.

1. Xitoy iqtisodiy-geografik o'rnining ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan Xitoy bilan chegaradosh davlatlarni aniqlang va daftaringizga yozib oling. U qaysi davlatlar bilan eng uzun davlat chegaralariga ega?

Javob:

IQTISODIY-GEOGRAFIK O'RNII	
<i>Ijobiy tomonlari</i>	<i>Salbiy tomonlari</i>
<i>Xitoy iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi Tinch okean qirg'oqlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega ekani bilan belgilanadi.</i>	<i>Xitoy hududi va chegaralarida bahsli hududlarning mavjudligi. Janubiy va janubi-sharqiy tomonlari baland tog'lar bilan o'ralganligi o'z navbatida shu chegaradagi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish bir oz murakkabligi.</i>



Chegaradosh davlatlarning xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Xitoy davlati bilan chegarasining uzunligi	Xitoy bilan chegarasi uzunligiga ko'ra o'rni
1	Rossiya	shimoli-g'arbda 40 km va shimoli-sharqda 3605 km (3645 km)	3
2	Shimoliy Koreya	1416 km	6
3	Vetnam	1281 km	7
4	Laos	423 km	12
5	Myanma	2185 km	4
6	Butan	470 km	11
7	Nepal	1236 km	8
8	Hindiston	3903 km	2
9	Pokiston	523 km	10
10	Afg'oniston	76 km	14
11	Tojikiston	414 km	13
12	Qirg'iziston	858 km	9
13	Qozog'iston	1533 km	5
14	Mo'g'uliston	4677 km	1
Gidrografik chegaralari			
Xaritada belgilanishi		Nomi	
A		Tinch okeani	
B		Sariq dengiz	
D		Sharqiy Xitoy dengizi	
C		Tayvan bo'g'ozi	
F		G'arbiy Koreya qo'ltig'i	

E	<i>Janubiy Xitoy dengizi</i>
G	<i>Bakbo (Tonkin) qo'ltig'i</i>

42-§. XITOIY IQTISODIYOTI VA IQTISODIY RAYONLARI.

1. Xitoyning turli sohalarda jahon miqyosidagi o'rnini topib, tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

A) 1-o'rinda B) 2-o'rinda D) 3-o'rinda

- | | |
|----------------------------------|--|
| 1) avtomobil ishlab chiqarishda; | 6) asal tayyorlashda; |
| 2) shakarqamish yetishtirishda; | 7) elektr energiyasi ishlab chiqarishda; |
| 3) meva yetishtirishda; | 8) choy yetishtirishda; |
| 4) ko'mir qazib olishda; | 9) baliq ovlash hajmi bo'yicha; |
| 5) makkajo'xori yetishtirishda; | 10) sholi yetishtirishda. |

Javob:

1 – A;	2 – D;	3 – A;	4 – A;	5 – B;
6 – A;	7 – A;	8 – A;	9 – A;	10 – A.

20-jadval. Xitoyning jahon bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'rni (2018-yil yakunlari bo'yicha)

№	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	O'lchov birligi	Yetishtirish	Jahondagi ulushi (%)	Jahon bo'yi-cha o'rni
1	Bug'doy	mln tonna	131,4	17,9	1
2	Sholi	mln tonna	214,1	27,4	1
3	Makkajo'xori	mln tonna	257,3	22,4	2
4	Kartoshka	mln tonna	90,3	26,3	1
5	Shakarqamish	mln tonna	108,1	5,7	3
6	Sabzavot	mln tonna	549	52,3	1
7	Meva	mln tonna	240,8	24,3	1
8	Choy	mln tonna	2,6	41,2	1
9	Go'sht	mln tonna	88,1	25,7	1
10	Tuxum	mln tonna	27	39,6	1
11	Jun	ming tonna	417	19,9	1

2. Quyidagi savdo brendlari asosida faoliyat yurituvchi Xitoy kompaniyalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

a **Hisense**

b **Alibaba.com**



Javob:

Rasmda belgilanishi	Savdo brendi nomi	Kompaniya to'g'risida ma'lumot
a	Hisense	Xitoycha nomlanishi - 海信有限公司 Rimlashtirilgan ism - Hǎixìn yǒuxiàn gōngsī. Turi – Ommaviy. Sanoat - Elektron mahsulotlar, maishiy texnika. Tashkil etilgan - 1994 yil sentyabr; Bosh ofis - Tsindao, Shandun, Xitoy. Xizmat ko'rsatiladigan maydon - Butun dunyo bo'ylab mahsulotlar Mobil telefonlar, smartfonlar, televizorlar, konditsionerlar, muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari. Daromad - 18,3 milliard AQSh dollari (2019). Operatsion daromad - 288,59 million AQSh dollari (2018). Sof daromad 1,14 milliard AQSh dollari (2019). Egasi - Qingdao Hisense Electric Holdings Co., Ltd. (29,9%). Filiallar - 54 ta kompaniya va idoralar.
b	Alibaba.com	Alibaba Group Holding Limited — Alibaba Group va Alibaba.com sifatida tanilgan, Xitoyning elektron tijorat, chakana savdo, Internet va texnologiyalarga ixtisoslashgan transmilliy texnologik kompaniyasi. 1999-yil 28-iyunda Chjetszyan shahrining Xanchjou shahrida tashkil etilgan. Kompaniya veb-portallar orqali iste'molchidan iste'molchiga (C2C), biznesdan iste'molchiga (B2C) va biznesdan biznesga (B2B) savdo xizmatlarini taqdim etadi. Elektron to'lov xizmatlari, xarid qilish qidiruv tizimlari va bulutli hisoblash xizmatlari mavjud. U dunyodagi ko'plab biznes sohalarida turli xil kompaniyalar portfeliga egalik qiladi va ishlaydi. Buyuk Britaniyaning dunyo bozorini o'rganuvchi «Kantar» kompaniyasi dunyoning eng qimmat kompaniyalari reytingini e'lon qildi. Reytingning kuchli o'nligidan „Alibaba“ ham o'rin olgan.

		2014-yil 19-sentabrda Nyu York fond birjasida Alibaba'ning ommaviy aksiyalari (IPO) 25 milliard dollarni tashkil etdi va kompaniyani 231 milliard dollar kapitallashuvini taminladi. Shu bilan dunyo tarixidagi eng yirik ommaviy taklif bo'ldi. Dunyodagi eng qimmat 10 korporatsiyadan biri va „Forbes Global 2000“ 2020 ro'yxatida dunyodagi 31-eng yirik ommaviy kompaniya deb keltirilgan. 2018-yil yanvar oyida Alibaba raqibi Tencentdan keyin 500 milliard dollarlik savdo hajmidan o'tgan ikkinchi Osiyo kompaniyasi bo'ldi. 2020-yilga kelib, Alibaba global brendning oltinchi eng yuqori bahosiga ega bo'ldi. Alibaba dunyodagi eng yirik chakana savdo va elektron tijorat kompaniyalaridan biridir. 2020-yilda u beshinchi yirik sun'iy intellekt kompaniyasi sifatida ham baholandi. Shuningdek, u eng yirik venchur kapital firmalaridan biri va dunyodagi eng yirik investitsiya korporatsiyalaridan biridir. Kompaniya dunyodagi eng katta B2B (Alibaba.com), C2C (Taobao) va B2C (Tmall) bozorlariga mezbonlik qiladi. U media sohasiga kirib bormoqda, daromadlari yildan-yilga uch baravar ko'paymoqda. Shuningdek, u dunyodagi eng katta onlayn va oflayn xarid qilish kuni bo'lgan Xitoyning Singles Day kuni (2018 yildagi) rekordini o'rnatdi
d	HUAWEI	Huawei Technologies Co. Ltd. (xitoycha: 华为; pinyin: <i>Huáwèi</i> — Xitoy kompaniyasi, telekommunikatsiya sohasidagi dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri . 1987 - yilda Xitoy Xalq ozodlik armiyasining sobiq muhandisi Ren Zhengfey tomonidan tashkil etilgan. Huawei 1987-yil 15-sentabrda asos solingan. Huawei mahsulotlariga quyidagilar kiradi: Maishiy elektronika, Mobil qurilmalar: smartfonlar (shu jumladan, Honor markasi) va planshetlar ular uchun operatsion tizim (Harmony OS) ham ishlab chiqilmoqda. Tarmoq xizmatlari : AppGallery ilovalar do'koni, 2018-yilda 266 million oylik foydalanuvchilarga yetdi. AppGalleryda 560 000 foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan. ishlab chiquvchilar Telekommunikatsiya uskunalari simsiz tarmoq uskunalari asosiy tarmoq uskunalari (IMS, Mobile Softswitch, NGN), tarmoq qurilmalari (FTTx, xDSL, optik qurilmalar, routerlar, tarmoq kalitlari) ilovalar va apparat vositalari (IN, mobil ma'lumotlar xizmatlari, BOSS) terminallar (UMTS / CDMA). 2015 - yilda Huawei dunyodagi uchinchi yirik smartfon ishlab chiqaruvchisi bo'ldi. 2017 - yilning birinchi choragi natijalariga ko'ra, kompaniya bozorda uchinchi o'rinni ham

		egalladi - etkazib berish hajmi 34,2 million smartfonni tashkil etdi, bu 6,1% ulushga to'g'ri keladi . 2018-yilning ikkinchi choragida Huawei Apple'ni ortda qoldirib, dunyodagi ikkinchi yirik smartfon ishlab chiqaruvchisiga aylandi. 2018-yil iyun oyida Huawei Rossiyada smartfonlarni onlayn sotish bo'yicha Samsung ortda qoldirib, yetakchiga aylandi. 2019-yil mart oyida kompaniya Koreyaning Gentle Monster moda brendi bilan hamkorlikda yaratilgan o'zining birinchi aqlli ko'zoynaklarini taqdim etdi. Ularning ramkasiga dinamiklar, mikrofon, antenna va batareya o'rnatiladi. 2019-yil iyul oyida kompaniya 5G ulanishiga ega birinchi smartfonni taqdim etdi. Smartfon modeli HUAWEI Mate 20 X deb nomlandi
e	UnionPay	UnionPay — 2002 yilda tashkil etilgan xalqaro to'lov tizimi. Xitoy Davlat kengashi va Xitoy Xalq banki tashabbusi bilan yaratilgan. Uning aksiyadorlari 200 dan ortiq moliyaviy tashkilotlardir. 2015-yilda amalga oshirilgan to'lovlar hajmi bo'yicha u Visa va Mastercard'dan o'zib ketdi va dunyodagi eng yirik to'lov tizimiga aylandi, biroq to'lovlarning atigi 0,5 foizi Xitoydan tashqarida amalga oshiriladi.
f	Xiaomi	Xiaomi Corporation (talaffuzi: Shuomi Korpareyshn) — Xitoyning elektron uskunalar ishlab chiqaruvchi kompaniyasi bo'lib, 2010-yilning aprel oyida asos solingan. Bosh ofisi Pekinda joylashgan. Xiaomi smartfonlar, mobil dasturlar, noutbuklar, sumkalar, quloqchinlar, MI televizorlar, oyoq kiyimlar, fitnes brasletlar va boshqa ko'plab mahsulotlar ishlab chiqaradi va ularni ishlab chiqarishga investitsiya qiladi. Xiaomi shuningdek, Apple, Samsung va Huaweidan so'ng telefon chiqlarini o'zi ishlab chiqara olgan to'rtinchi kompaniyadir. Xiaomi o'zining dastlabki smartfonini 2011-yil avgustda taqdim etdi va tezkorlik bilan Xitoy bozoriga tarqaldi va 2014-yilga kelib mamlakatning eng katta smartfon kompaniyasiga aylandi. 2018-yilning to'rtinchi choragiga kelib esa Xiaomi dunyoning to'rtinchi eng katta smartfon ishlab chiqaruvchisiga aylandi, Hindiston va Xitoy bozorlarida ham yetakchilikni qo'lga oldi. 2019-yilning may oyida qirqdan ortiq mamlakat smartfon bozorlarida dastlabki beshlikda turdi. Xiaoming dunyo bo'ylab 16700 dan ortiq ishchilari mavjud. U Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Janubiy Afrika va boshqa ko'plab Janubiy Osiyo va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bo'ylab keng yoyilib bormoqda. Hozirgi

	kunda kelib Xiaomi dunyoning 90dan ortiq mamlakatlari bo'ylab sotiladi. Forbes jurnali ma'lumotlariga ko'ra kompaniya asoschisi Lei Jun 12.5 milliard AQSh dollarining egasidir. Xiaomi o'z investorlaridan 1.1 milliard AQSh \$ olganidan so'ng 46 milliard AQSh dollarlik kompaniyaga aylana olgan dunyoning texnologiya bo'yicha eng yaxshi to'rtinchi start-upidir. O'zining arzonligi tufayli Xiaomi smartfonlari O'zbekiston bozorlariga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Devicelarning arzonligiga to'xtalib o'tar ekan kompaniya vitse-prezidenti, ular smartfonlarning apparat qismidan deyarli hech qanday foyda olmasliklarini ta'kidlab o'tadilar. Foydaning asosiy qismi smartfonlarda reklama ko'rsatishdan ekan.
--	---

43-§. KOREYA RESPUBLIKASI.

Janubiy Koreya haqida qiziqarli faktlar.

1. Janubiy Koreya dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri.
 2. Agar Janubiy Koreyada jinoyat sodir bo'lsa, u bir hafta davomida mahalliy gazetalarda yoritiladi.
 3. Ushbu davlatning hududi juda kichik, bu borada sivilizatsiya hamma joyda mavjud.
 4. Beysbol Janubiy Koreyadagi eng ommabop sport turi.
 5. Janubiy Koreyadagi ikkinchi eng mashhur sport o'yini - bu golf.
 6. Koreyslar tog'larda sayr qilishni yaxshi ko'radilar, chunki bu ularning sevimli mashg'ulotlari.
- Janubiy Koreyaliklarning 7,90% miyopikdir, shuning uchun ular linzalar yoki ko'zoynak taqishlari kerak.
8. Internet Explorer - bu Janubiy Koreyada ishlatiladigan brauzer, shu sababli ushbu mamlakatda barcha saytlar ushbu brauzer uchun yaratilgan va boshqasida ishlamasligi mumkin.
 9. Janubiy Koreyada qahvaxonalar hamma joyda mavjud, chunki koreyslar qahvaxonani juda yaxshi ko'radilar.
 10. Bepul Internetni Janubiy Koreyaning deyarli barcha muassasalarida topish mumkin.
 11. Janubiy Koreya mahalliy ishlab chiqaruvchilarni alohida ishonch bilan qo'llab-quvvatlaydi.
 12. Qishloq xo'jaligi Janubiy Koreya iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i hisoblanadi.
 13. Janubiy Koreyada stomatologiya xizmati juda qimmat deb hisoblanadi, shuning uchun bu mamlakat aholisi og'iz bo'shlig'ini diqqat bilan kuzatib boradi.
 14. Koreyslar o'qish uchun muhim rol o'ynaydilar, chunki ular ertalabdan kechgacha o'qishadi.
 15. Janubiy Koreyada ta'til yo'q.
 16. Bu mamlakatda 2 ta asosiy katta bayramlar mavjud. Bu Yangi yil va kuz festivali. Shu kunlarda koreyslar 3 kun dam olishadi.
 17. Janubiy Koreyada ortiqcha vaznga ega odamni uchratish kamdan-kam uchraydi.
 18. Faqat prezidentlar Janubiy Koreyadan kelgan o'qituvchilarni ishdan bo'shatishlari mumkin.

22. Janubiy Koreyaning aholisi sochlari va o'z terilariga qanday g'amxo'rlik qilishni bilishadi, shuning uchun ularni bo'yanishsiz tasavvur qilish qiyin.
23. Ko'pchilik, koreys ayollari, ularning go'zalligi sun'iy ravishda yaratilganiga qaramay, yapon ayollariga qaraganda ancha go'zalroq deyishadi.
24. Janubiy Koreyada har kimning uyali telefoni bor, hatto uysizlar ham.
25. Janubiy Koreya toza mamlakat bo'lishiga qaramay, siz u erda urnni kamdan-kam uchratasiz.
26. Janubiy Koreyaning har bir fuqarosi qo'shiq aytishni afzal ko'radi, shuning uchun karaoke ularning asosiy sevimli mashg'ulotidir.
27. Janubiy Koreyaning xarid qilish shovqini taxminan soat 19:00 dan keyin boshlanadi.
28. Janubiy Koreyadagi motellar cherkovlarga qo'shni.
30. Har bir yigit, nogironlardan tashqari, Janubiy Koreyada harbiy xizmatdan o'tishi shart.
31. Janubiy Koreyada oziq-ovqat kulti mavjud.
32. Koreyslar, do'stingizning hayoti haqida so'rash o'rniga, "yaxshi ovqatlaningizmi?"
33. Janubiy Koreyadan kelgan har bir taom haqida ushbu mamlakat aholisi sog'liq uchun foydali ekanligini aytishadi.
34. Janubiy Koreyaliklar ruslarga qaraganda ancha ko'proq ichishadi.
35. Koreyaning har bir aholisi ichish uchun yuzta qiziqarli o'yin-kulgini biladi.
37. Koreyalik turmush qurgan erkaklar o'zlarining turmush o'rtog'ini aldaydilar.
39. Janubiy Koreyadagi keksa ayollar taxminan bir xil ko'rinishga ega.
40. Janubiy Koreyada qarovsiz hayvonlar yo'q.
41. Janubiy Koreyadagi chet elliklar 2 turga bo'linadi: ingliz tili o'qituvchilari va almashinuvchi talabalar.
42. Janubiy Koreyaliklar stul yoki divanga emas, balki polga o'tirishni afzal ko'rishadi.
43. Koreysni yomg'ir ostida qo'riqchiga olib chiqish haqiqiy emas.
44. Koreys musiqasi asosan estrada musiqasi.
45. Janubiy Koreyada kuchli yog'ingarchilik tufayli suv toshqini tez-tez uchraydi.
46. Janubiy Koreyada hech qanday hudud yo'q.
47. Ko'pgina koreys barlari pivo uchun gazak buyurtma qilishni taklif qilishadi.
48. Koreyaliklar, kimdir bilan uchrashganda, avvalo ularning yoshini so'rashadi.
49. Janubiy koreyalik yosh yigitlar xuddi filmlardagi kabi romantik munosabatlarni o'rnatadilar.
50. Bunday holatda chekishga deyarli hamma joyda ruxsat beriladi.
51. Koreyada chekadigan ayollar juda kam.
52. Janubiy Koreyada deyarli hech kim ism bilan chaqirilmaydi.
53. Janubiy Koreya aynan Sharqiy Osiyoning o'rtasida joylashgan davlatdir.
54. Koreys tili eng o'ziga xosdir.
55. Ushbu davlat eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilar beshligiga kiradi.
56. Janubiy Koreya - aholi zich joylashgan ko'plab davlatlardan biri.
57. Ushbu davlat hududida 20 dan ortiq milliy bog'lar mavjud.
58. Barcha professional videoo'yin musobaqalari Janubiy Koreyada paydo bo'lgan.
59. Xangang - Janubiy Koreyadagi eng uzun daryo.
60. Taekvondo, yakkakurash san'ati ham shu mamlakatda paydo bo'lgan.
61. Spirtli ichimliklar - Janubiy Koreyaning azaliy dushmani.
62. Qo'pol odamga o'xshamaslik uchun Janubiy Koreyada qo'l berib ko'rishish qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.
63. Janubiy Koreya - konservativ davlat.

- 64 1979 yilgacha Janubiy Koreyada ayollar kiyimlari qattiq nazorat ostida edi. Keyin, nafaqat yubka uzunligi, balki soch uzunligi ham tartibga solingan.
65. Janubiy Koreya o'zining istirohat bog'lari bilan mashhur.
66. Janubiy Koreyada hojatxona parki yaratildi, u erda turli davrlardagi hojatxonalardan turli xil narsalar namoyish etildi.
67. Koreyada va buqalar kurashida uning o'ziga xos xususiyati, chunki buqalar jangdan oldin spirtli ichimlik ichishlari kerak.
- 68 Janubiy Koreya butun dunyodagi eng qiziqarli mamlakat.
69. Koreyslar qizil rangdan qo'rqishadi.
70. Janubiy koreyalik talabalar g'ayrioddiy aql bilan ajralib turadi.
71. Janubiy Koreyadagi ko'plab restoranlar o'z uylariga ovqat etkazib berishadi.
72. Koreyalik erkaklar go'zallik mahsulotlarini yaxshi ko'radilar va ular ayollar kabi bo'yanish bilan shug'ullanishadi.
73. 1998 yildan beri Janubiy Koreyada dastlab oddiy reklama hisoblangan loy festivali bo'lib o'tdi.
76. Janubiy Koreyadagi qon shaxsni aniqlashga yordam beradi.
77. Seul moda markazi va Janubiy Koreyaning poytaxti.
78. Koreyada ichki kiyimlar, kiyim-kechaklar va poyabzallarning o'lchamlari umuman boshqacha hisoblanadi.
79. Soju - koreyslarning eng sevimli spirtli ichimliklari.
80. Janubiy Koreyada eng kam tarqalgan protsedura - bu go'zallik salonlarida sochlarni tekislash.
81. Aynan koreyslar kamerani mobil telefonlarning old qismiga surish g'oyasini ilgari surishdi.
82. Selfi ham Janubiy Koreyadan kelgan.
83. Janubiy Koreya aholisi kelajakda bolasi shifokor bo'lishi uchun ko'p pul berishga tayyor.
85. Koreyslar bir necha soat davomida ko'p sababsiz kulishlari mumkin.
87. Ushbu mamlakatda uyali aloqa arzon emas.
88. Janubiy Koreyadagi oshxonada bepul suv doimo mavjud.
89. Koreyslar "J" va "R" harflarini deyarli aytishmaydi.
91. Klubdagi koreyslar raqsga tushishmaydi, ular sakrashadi.
92. Janubiy Koreyada sayyohlarni yaxshi ko'rishadi va ularga yaxshi munosabatda bo'lishadi.
93. 1960 yilgacha Koreya eng qashshoq davlatlardan biri hisoblanardi.
- 94 Janubiy Koreyada giyohvandlik deyarli mavjud emas.
95. Ushbu mamlakatda sut mahsulotlari zamonaviy hisoblanadi.
- 96 Janubiy Koreyada topilgan Dharani Scroll eng qadimiy bosma nashr hisoblanadi.
97. Koreyaliklar o'zlarining fotosuratlarini bilan ovora.
- 98 Janubiy Koreyada oqsoqollarga yaxshi munosabatda bo'lish va hatto begonalarga salom berish odat tusiga kiradi.
99. Janubiy Koreya xalqi dunyodagi eng mehnatkash odamlardir.
100. 99% bu koreyslarning savodxonlik darajasi.

1. Mamlakat aholisining yosh tarkibiga qanday jarayon katta ta'sir ko'rsatmoqda? Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib oling va mavzu matnida berilgan ma'lumotlardan foydalanib to'ldiring.

	14 yoshgacha bo'lgan bolalar	15—64 yoshdagilar	65 yosh va undan kattalar
Ulushi, %	...	...	...
Soni, mln kishi	...	...	...

Javob:

	14 yoshgacha bo'lgan bolalar	15—64 yoshdagilar	65 yosh va undan kattalar
Ulushi, %	12 %	72 %	16 %
Soni, mln kishi	6,2	37,3	8,3

Darslik matnida 14 yoshgacha bo'lgan hamda 65 yosh va undan katta bo'lgan aholi ulushi berilgan. Shu ma'lumotlardan kelib chiqib 15-64 yoshdagilarni aniqlaymiz. Buning uchun 14 yoshgacha hamda 65 yosh va undan kattalar ulushini qo'shib chiqqan natijani 100 % aholi ulushidan ayiramiz.

$12\% + 16\% = 28\%$; $100\% - 28\% = 72\%$. Demak 15 – 64 yoshdagilar ulushi 72 % ekan.

Yuqoridagi foiz ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, ularning sonini aniqlashga harakat qilamiz. Koreya aholisi 2020-yil ma'lumotiga ko'ra **51,8 mln** kishini tashkil etadi. Endi yoshga doir aholi sonini aniqlash uchun proporsiya tuzib olamiz (berilgan yoshga doir ulushni jami aholi soniga ko'paytirib chiqqan natijani yuz soniga bo'lsak javobi kelib chiqadi).

51,8 mln ----- 100 %
X ----- 12 %

$$x = \frac{12\% \times 51,8 \text{ mln}}{100\%} = 6,216 \text{ mln}$$

14 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 12 %, soni 6,2 mln kishi.

51,8 mln ----- 100 %
X ----- 72 %

$$x = \frac{72\% \times 51,8 \text{ mln}}{100\%} = 37,296 \text{ mln}$$

15-64 yoshgacha bo'lganlar ulushi 72 %, soni 37,3 mln kishi.

51,8 mln ----- 100 %
X ----- 16 %

$$x = \frac{16\% \times 51,8 \text{ mln}}{100\%} = 8,288 \text{ mln}$$

65 yosh va undan kattalar ulushi 16 %, soni 8,3 mln kishi.

2. Mamlakatimiz va Koreya Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qaysi yo'nalishlarda rivojlanmoqda? Qo'shimcha manbalar asosida ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi hajmi va uning tovarlar tarkibi to'g'risida ma'lumotlar toping.

Javob:

Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va "yashil" texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilishini alohida ta'kidladi.

2021 yil 28 yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o'tkazdi. Davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar borasida alohida strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va hamkorlikni har tomonlama kengaytirishni ta'kidladilar.

Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy meros ob'yektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish sohalaridagi hamkorlikning joriy va istiqbolli dasturlari ko'rib chiqildi.

Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o'zlashtirilishi ma'lum qilindi. Bundan tashqari, ikki davlat hamkorligining yangi yo'nalishi sifatida yuqori texnologik sohalar, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko'plab boshqa tarmoqlarda jami qiymati 3,4 milliard AQSh dollardan ziyod bo'lgan 55 ta yangi loyiha amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 14 raund siyosiy maslahatlashuvlar bo'lib o'tdi (oxirgisi 2020 yil 5 noyabrda videoanjuman shaklida o'tkazilgan). 2018 yil 17 – 18 aprel kunlari Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Kan Gyon Xva O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. 2007 yil noyabr oyidan buyon "Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo" yillik hamkorlik forumi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2020 yil noyabr oyida Tashqi ishlar vaziri A. Kamilov Forumning 13-yig'ilishida ishtirok etdi.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar Koreya Respublikasining barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab kelgann. Xususan, BMT ning irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha Qo'mitasiga (2018 – 2021 yillar), EKOSOS (2016 y.), inson huquqlari Kengashiga (2013 – 2015 y. va 2016 – 2018 y.), xalqaro huquq Komissiyasiga (2017 – 2021 y.), BMTning xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasiga (2013-2019 y. va 2019-2025 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashiga (2010 – 2014 y., 2014 – 2018 y. va 2018 – 2022 y.), xalqaro telekommunikatsiya Ittifoqi Kengashi telekommunikatsiya standartlashtirish byurosi direktorligiga (2014 y.), Jahon meteorologiya tashkiloti Ijroiya Kengashi a'zoliciga (2011 y., 2015 y., 2019 y.) ilgari surgan nomzodlarini qo'llab quvvatladi.

O'z navbatida rasmiy Seul ham BMT Bosh assambleyasi doirasida O'zbekistonning tashabbusi bilan 2018 yilda qabul qilingan ikkita, ya'ni "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" hamda "Ta'lim va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyani qo'llab-quvvatladi va unga hammualliflik qildi Shuningdek, Janubiy Koreya 2021 – 2023-yillar davomida O'zbekistonning BMT inson huquqlari Kengashiga nomzodini qo'llab-quvvatladi.

Hamkorlikning shartnomaviy – huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak,

respublikalar o'rtasida 181 ta hujjat imzolangan bo'lib, ulardan 4 tasi davlatlararo, 53 tasi hukumatlararo, 75 tasi idoralararo va 49 tasi boshqa hujjatlar (xalqaro shartnoma maqomiga yega bo'lmagan xalqaro hujjatlar).

Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo-tinch okeani mintaqasi davlatlari savdo hamkorlari orasida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Xususan, 1992 yilda imzolangan savdo bitimiga muvofiq mamlakatlar o'rtasida eng qulay afzalliklar rejimi o'rnatilgan. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar yildan yilga o'sib borishi tomonlar o'rtasidagi munosabatlar mustahkam "poydevor"ga egaligi bilan ajralib turadi.

2015 – 2020 yillarda ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi

Yillar	Savdo aylanmasi mln. AQSh doll.	Eksport mln. AQSh doll.	Import mln. AQSh doll.	Saldo mln. AQSh doll.
2015 y.	1 739,6	176,4	1 563,2	-1 386,8
2016 y.	1 070,4	201,8	868,7	-666,9
2017 y.	1 387,6	143,3	1 244,3	-1 101
2018 y.	2 159,1	108,6	2 050,5	-1 941,9
2019 y.	2 755,3	93,5	2 661,8	-2 568,3
2020 y.	2 142,3	45,5	2 096,8	-2 051,3

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2020 yil yakuni bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2 142,3 million AQSh dollarni tashkil qildi. Shundan eksport – 45,5 million AQSh dollarni, import esa – 1 872,7 million AQSh dollarni tashkil qildi.

O'zbekistonning Janubiy Koreyaga eksport qiladigan asosiy mahsulotlari transport, qurilish, turizm xizmatlari (33,5%), yog'och va yog'och mahsulotlari (20,6%), to'qimachilik mahsulotlari (13,4%), kimyoviy mahsulotlar (10,3%), elektr uskunalar va uning qismlari (6,2%), oziq-ovqat mahsulotlari (4,3%), qurilish materiallari (4,1%), yog'li urug'lar, mevalar (2,6%) va boshqalar.

Koreyadan keltiriladigan import mahsulotlarining asosiy qismini transport vositalari va ularning ehtiyot qismlari (41,1%), turli xil mexanik va elektr uskunalar (23,1%), plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (5,5%), qurilish materiallari (5,3%), qora metall va undan tayyorlangan mahsulotlar (4,1%), optik uskunalar va apparatlar (3,2%), kimyoviy mahsulotlar (2,4%), kauchuk va rezina mahsulotlari (2,3%) va boshqalar.

Tomonlar investitsion hamkorlik bo'yicha ham ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, 1992-2020 yillar mobaynida Koreyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalari hajmi 7 milliard AQSh dollardan ortiq. Koreya investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa 875 tani tashkil qilib, ulardan 539 tasi – 100% Koreya kapitali ishtirokida shakllantirilgan. Ushbu korxonalarning faoliyati asosan savdo, yengil sanoat, tog'-kon, kimyo, oziq – ovqat sanoatlariga, mashinasozlik va metalga ishlov berish, uy-joy-kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, turizm va xizmatlar sohalariga ixtisoslashgan.

O'zbekistonga investitsiya kiritgan eng yirik kompaniyalar "Koreya milliy neft korporatsiyasi" (KNOC), "Koreya gaz korporatsiyasi" (KoGas), "Daewoo International", "Korean Air", "Shindong Enercom", "Haintex" va "LG" hisoblanadi.

Shu jumladan, "Koreya gaz korporatsiyasi" (KoGas) "O'zbekneftgaz" AJ bilan hamkorlikda O'zbekiston shimoli-g'arbidagi Ustyurt yassi tog'ligida qiymati 4 milliard

AQSh dollar bo'lgan gaz-kimyo majmuasini 2016 yilda qurib bitirdi. "Koreya milliy neft korporatsiyasi" esa Farg'ona vodiysida yangi neft konlarini qidirib topish loyihalarini amalga oshirish ustida ish olib bormoqda.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan 74 ta Koreya kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan.

Moliya-texnikaviy ko'mak sohasida Koreya Eksimbanki iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik Fondi (EDCF) tizimidagi hamkorlik doirasida:

- 2014 – 2017 y. – 179,5 million AQSh dollarli 4 ta loyiha;*
- 2018 – 2020 y. – 659,4 million AQSh dollarli 7 ta loyiha;*
- 2021 – 2022 y. – 1,37 milliard AQSh dollarli 12 ta loyiha amalga oshiriladi.*

Undan tashqari, Xalqaro Hamkorlik bo'yicha Koreya Agentligi (KOICA) yo'nalishidagi texnik hamkorlik O'zbekistonga beg'araz asbob-uskunalar taqdim etish, mutaxassislar va xodimlarni Koreya Respublikasida o'qitish, koreys ekspertlari va ko'ngillilarni O'zbekistonga yuborish yo'nalishlarida amalga oshirmoqda. Xususan, 1995 – 2020 yillar mobaynida KOICA yo'nalishida O'zbekiston Respublikasiga ko'rsatilgan beg'araz yordamning umumiy hajmi 130 million AQSh dollarni tashkil qilib, mablag'lar sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot texnologiyalar, kommunal xo'jalik, qishloq va suv xo'jaligi, energetika sohaslaridagi loyihalarni amalga oshirishga maqsadida yo'naltirilgan. Shuningdek, bugungi kunga qadar KOICAning texnik hamkorligi doirasida O'zbekiston vazirliklari va idoralarining 2 000 dan ortiq vakillari Koreya Respublikasida tahsil oldi hamda 70 dan ortiq koreyalik ekspertlar hamda 500 dan ortiq ko'ngillilari O'zbekistonda o'z missiyasini amalga oshirdi.

2007 yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik doirasida Bandlikka ruxsat berish tizimi bo'yicha 31,5 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarosi Janubiy Koreyaga yuborildi. Hozirgi kunda Janubiy Koreyada 17 mingga yaqin o'zbekistonliklar mehnat qilmoqda. Har yili Koreya Hukumati tomonidan O'zbekiston uchun 3 – 3,2 ming kishi atorofida kvota ajratiladi.

2018 yil sentyabr oyida Koreyaning Kvanju shahrida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatxonasi tashkil etildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik yo'nalishida ham bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, ta'lim sohasida Toshkentda 1992 yildan boshlab Koreya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasida va 48 ta maktab va litseylarida koreys tili o'rgatiladi.

Mahalliy oliygohlar Koreyaning 45 dan ortiq universitet, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yaju universitetlari, fililallari hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021 yil 1 fevralda esa Aju universitetining filiali ochildi.

Toshkentda Koreya metodologiyasi bo'yicha tashkil etilgan 324-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik doirasida hozirga qadar respublikamizning 400 dan ortiq tibbiyot mutaxassislari Koreyaning yetakchi klinika va markazlarida malakasini oshirdi. 2019 yil aprel oyida sog'liqni saqlash sohasida O'zbekiston-Koreya hamkorlik markazi tashkil etildi.

2020 yil may oyida EDCF fondi ko'magida Toshkentda qiymati 130 million AQSh dollarli "Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi" qurilishi yakunlandi. Bugungi kunda

Koreya tomoni bilan qiymati 150 million AQSh dollarli “Kattalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi” hamda 150 million AQSh dollarli “Onkologik klinika” qurilishi bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ikki davlat o‘rtasida madaniyat sohasida aloqalar ham izchillik bilan davom etmoqda. 2014 yilda Toshkentdagi “Do‘stlik bog‘i” hududining bir qismida Seul bog‘i tashkil etildi. 2018 yil oktyabr oyida Seulda “O‘zbekiston madaniyati haftaligi” tashkil etildi.

2019 yil mart oyida “Koreya – Markaziy Osiyo” hamkorlik forumi kotibiyati tomonidan tashkil yetilgan “Seulda Navro‘z” xalqaro festivalida “Navro‘z” va “Lazgi” ijodiy guruhlar ishtirok etdi. 2019 yil aprel oyida Toshkentda Koreya madaniyati va san‘ati uyi faoliyatini boshladi. Toshkent ko‘chalaridan biri “Seul” deb nomlandi.

Turizm sohasida 2018 yil 10 fevraldan buyon O‘zbekistonda Koreya Respublikasi fuqarolari uchun 30 kunga qadar vizasiz rejimi joriy etildi. 2019 yilda Janubiy koreyalik mashhur aktrisa Li Yong-aye O‘zbekistonning Koreyadagi sayyohlik elchisi etib tayinlandi. 2020 yil davomida O‘zbekistonga 6 489 ta Koreya fuqarosi tashrif buyurdi (2019 yilda – 35 524 ta, 2018 yilda – 27 269 ta).

Bugung kunda, hamkorlikning yangi yo‘nalishi sifatida O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasining nomutanosibligini tenglashtirish hamda eksport-import operatsiyalari nomenklaturasini diversifikatsiya qilish maqsadida ikki davlat o‘rtasida Erkin savdo to‘g‘risida bitim imzolanishi bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda.

O‘zbekiston bilan Erkin savdo to‘g‘risida bitim imzolanishi to‘g‘risida Koreya Respublikasi Prezidenti 2020 yil 31 dekabrda Koreya xalqiga yo‘llagan yangi yil tabrigida ham alohida to‘xtalib o‘tdi.

Ma‘lumot uchun: Erkin savdo to‘g‘risida bitim – xalqaro integratsiyaning bir turi bo‘lib, xalqaro shartnomaga muvofiq ishtirokchi davlatlar o‘rtasida o‘zaro savdoda bojxona to‘lovlari, soliqlar, yig‘imlar, shuningdek miqdoriy cheklovlar bekor qilinadi.

Joriy yil 24 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri o‘rinbosari B Abidov hamda Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika vazirligining Erkin savdo bitimlari bo‘yicha Bosh direktori Yang Gi Uk videokonferensiya shaklida Erkin savdo to‘g‘risida Bitim loyihasi yuzasidan navbatdagi sessiyalararo muzokaralar o‘tkazdi.

Tomonlar Bitim loyihasini ko‘rib chiqdilar hamda ayrim tovarlarga qo‘llaniladigan tarif cheklovlarini soddalashtirish istiqbollarini muhokama qildilar.

Shu bilan birga, Janubiy Koreya O‘zbekiston Respublikasini Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishida ko‘maklashib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekistonni Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish bo‘yicha tashkil etilgan ishchi guruhga Koreya Respublikasining Jahon savdo tashkilotidagi doimiy vakili janob Li Te Xon raislik qiladi. 2020 yil avgust oyida JST kotibiyat bilan Ishchi guruh yig‘ilishining 5 raundi o‘tkazildi.

Umuman olganda, diplomatik aloqalar o‘rnatilganidan buyon Koreya Respublikasi barcha yo‘nalishlarda, xususan amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarda, xalqaro masalalarda O‘zbekistonning sinalgan, ishonchli strategik hamkoriga aylandi. O‘z navbatida O‘zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy jabhalarda keng aloqalarni yo‘lga qo‘yish Koreya tomoni manfaatlariga ham to‘la mos keladi. Bundan kelib chiqqan holda tomonlar yaqin va uzoq istiqbolda ikki tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga harakat qiladilar.

(Xurshidbek Samiyev)

44-§. YAPONIYA.

Yaponiya va yaponlar haqida 100 ta qiziqarli faktlar

Yaponiya, shubhasiz, noyob davlatdir. Xalqning qadimiy an'analari har doim boshqa mamlakatlar aholisini qiziqtirgan. Yaponiya haqidagi qiziqarli faktlar nafaqat bu davlatdagi hayotning o'ziga xos xususiyatlari, balki bu xalqning tabiati, aholisi, madaniyati haqida ham ma'lumot beradi.

Yaponiya haqida 70 ta fakt

1. Yaponiyada 11 fevral milliy bayramdir – Imperiya tashkil topgan kun.
2. Yaponiyada delfinlarni yeyish odat tusiga kirgan.
3. Yaponiyada Sevishganlar kunida sovg'alar beriladi va faqat qizlar hamdardlik bildiradilar.
4. Eng sekin McDonald's Yaponiyada ishlaydi.
5. Yaponiyada faqat ikkita shardan qor odam yasash odat tusiga kirgan.
6. Yaponiyada mevalar juda qimmat, lekin baliq va go'sht arzon.
7. Yaponiyada chegirma berilmaydi.
8. Bu shtatda zilzila paytida talonchilik bo'lmaydi.
9. Polkovnik Sanders Yaponiyada Rojdestvoning eng muhim ramzlaridan biridir.
10. Yaponiyada hatto oziq-ovqat do'konida ham kattalar uchun jurnal va filmlar sotiladi.
13. Yaponiyalik politsiyachilar dunyodagi eng halol odamlardir, chunki ular hech qachon pora olmaydilar.
14. Yaponiyada o'quv yili 1-aprelda boshlanadi va trimestrlarga bo'linadi.
16. Yaponiyada maktab formasining yubkalari yoshiga qarab uzunligi turlicha bo'ladi: o'quvchi qanchalik katta bo'lsa, etak shunchalik qisqa bo'ladi.
18. Yaponiya poyezdning 1 daqiqaga kechikishi sezilarli kechikish hisoblangan dunyodagi yagona davlatdir.
19. Bu mamlakat o'z joniga qasd qilish holatlari bo'yicha eng yuqori davlatlardan biri hisoblanadi.
20. Yaponiyada nikohlarning 30% ota-onalar tomonidan uyushtirilgan kelishish natijasida sodir bo'ladi.
22. Qishda qor yog'adigan shimolda joylashgan Yaponiyaning barcha shaharlarida piyodalar yo'laklari va ko'chalar isitilmoqda.
23. Bu mamlakatda markaziy isitish tizimi mavjud emas. Har kim uyini imkoni boricha isitadi.
24. Bu mamlakatda ishga vaqtida kelish yomon odobdir.
25. Yaponiyada aeroportlar va vokzallardan tashqari hamma joyda chekishingiz mumkin.
26. Rasmiy jihatdan Yaponiya hali ham imperiya hisoblanadi.
27. Yaponiya ko'chalarida soyabonli gulzorni ko'rishingiz mumkin, ular uyda soyabonni unutganlar uchun mo'ljallangan.
28. Yapon tilida bir vaqtda 3 xil yozuv qo'llaniladi: katakana, hiragana va kanji.
29. Yaponiyada mehmon ishchilari yo'q.
30. Yaponiyadagi deyarli barcha temir yo'llar xususiydir.
31. Yapon tilida oylarning nomlari yo'q. Ular raqamlar bilan belgilanadi.
32. Yaponiya aholisining 98,4 foizini etnik yaponlar tashkil etadi.
33. Bu mamlakatda mahkumlar saylovda ovoz berish huquqiga ega emas.
34. Yaponiya hududida 200 ga yaqin vulqon joylashgan.
35. Yaponiya poytaxti dunyodagi eng xavfsiz megapolis hisoblanadi.

36. Yaponiya Konstitutsiyasining 9-moddasi mamlakatning o'z armiyasiga ega bo'lishini va urushlarda qatnashishini taqiqlaydi.
37. Yaponiyada chiqindixona yo'q. Bu barcha axlatlarning qayta ishlanishi bilan bog'liq.
38. Yaponiya ko'chalarida bitta ham axlat qutisi yo'q.
39. Yaponiyada pensiyalar juda kichik.
40. Vandalizmning eng past darajasi Yaponiyada.
41. Yaponiyada erkaklar birinchi bo'lib salomlashadilar.
42. Yaponiyadagi barcha hojatxonalar isitish tizimi bilan jihozlangan.
43. Yaponiyada eng sevimli ichimlik choy hisoblanadi.
44. Yaponiyada teatr tomoshasi hatto 8 soat davom etishi mumkin.
45. Yaponiyada o'lim jazosi mavjud.
46. Bu mamlakatda imzo o'rniga ular nominal muhr qo'yishadi – hanko. Har bir yaponiyalik bu muhrga ega.
47. Yaponiya shaharlarida tirbandlik chap tomonda.
48. Yaponiyada sovg'ani bergan odamning huzurida ochish haqoratli hisoblanadi.
49. Yaponiyaning oltidan bir qismi o'rmonlar bilan qoplangan.
50. Yaponiyada tijorat maqsadlarida o'rmonlarni kesish taqiqlangan.
51. Yaponiyada siz baland ovozda champing yeyishingiz mumkin.
52. Bu shtatda 200 yoshdan oshgan 3000 ga yaqin kompaniya joylashgan.
53. 2017 yilda Yaponiya o'zining 2677 yilligini nishonladi. U rasman miloddan avvalgi 660 yil 11 fevralda tashkil etilgan.
54. Yaponiyada 100 yoshdan oshgan 50 000 dan ortiq kishi yashaydi.
55. Yaponiyada jamoat transporti chiptasi juda qimmat.
56. Yaponiyada yashovchi maymunlar hamyonni o'g'irlashni bilishadi.
57. Yaponiyada hayvonlar 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga qaraganda ko'proq.
58. Yaponiya Quyosh chiqishi mamlakati deb ataladi.
59. Hinomaru — Yaponiya davlat bayrog'ining nomi.
60. Asosiy yapon ma'budasi – Quyosh ma'budasi.
61. Yaponiyaning madhiyasi "Imperator qoidasi"
62. Yaponiyada sotiladigan telefonlarning aksariyati suv o'tkazmaydigan.
63. Yaponiyada kvadrat shaklidagi tarvuzlar sotiladi.
64. Yaponiyada savdo avtomatlari juda keng tarqalgan.
65. Yaponiyada qiyshiq tishlar go'zallik belgisi hisoblanadi.
66. Qog'oz raqamlarni yig'ish san'ati – origami, asli Yaponiyadan.
67. Yaponiyada maymunlar ofitsiant bo'lib ishlaydigan restoran bor.
68. Yapon taomlari butun dunyoda juda mashhur.
69. Guruch Yaponiyada asosiy oziq-ovqat hisoblanadi.
70. Yaponiyada pul yo'qdan ishlab chiqariladi. Pul haqidagi faktlarni ham o'qing.

Yaponlar haqida 30 ta fakt

1. Yaponlar don va mayonezdan pizza tayyorlashni yaxshi ko'radilar.
2. Yaponlar nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun guruch iste'mol qiladilar.
3. Yaponlar umr ko'rish davomiyligi bo'yicha yetakchilardan biri hisoblanadi.
4. Uyga kirishdan oldin yaponlar har doim oyoq kiyimlarini yechib olishadi.
5. Yaponlarda vilkalar pichoq o'rniga tayoqchalar bor.
6. Bu mamlakat aholisi har kuni go'sht, sabzavot va baliq sotib oladi, chunki ular yangi mahsulotlarni afzal ko'radilar.
7. Yaponlar uchun shifoxonalarda qavat yo'q.

8. Uylarini himoya qilish uchun yaponlar nafaqat itlardan, balki kriketlardan ham foydalanishadi.
10. Jamoat joyida burningizni cho'ktirish yaponlarga to'g'ri kelmaydi.
11. Yaponlar nihoyatda xushmuomala odamlardir.
12. Yaponlar dam olishni bilishmaydi. Ular hatto ketma-ket 4 ta dam olish kunlarini ta'til deyishadi.
13. Ko'pchilik yaponiyaliklar chiroyli qo'shiq aytadilar va chiroyli chizadilar.
15. Yaponlar vanna va issiq buloqlarni yaxshi ko'radilar.
16. Yapon oilalarida aka-uka va opa-singilning gaplashmasligi juda normal holat.
17. Har qanday sababga ko'ra yaponlar pul berishadi.
18. Yaponlar deyarli hamma narsaga ishonadilar, shuning uchun ular juda sodda odamlar hisoblanadilar.
19. Yaponlar raqsga tushishni juda yaxshi ko'radilar.
20. Yaponlarni chalkashtirib yuborish juda oson.
21. Taxminlarga ko'ra, agar siz yaponni hayajonlantira olsangiz, uning burni qonadi.
22. Yaponlar uy hayvonlarini juda yaxshi ko'radilar.
23. Yaponlar supermarketlarda kamdan-kam gapiradilar "rahmat".
24. Yaponiyada ko'p odamlar o'z davlatlarini haqorat qilishadi.
25. Yaponlar katta yoshdagi bolalarni asrab olishning juda keng tarqalgan amaliyotiga ega.
27. Yaponlar har ovqatdan keyin choy beradilar.
28. Yaponlar ishda uxlashni yaxshi ko'radilar va ular buning uchun jazolanmaydilar.
29. Yaponlar hamma narsani takrorlashni yaxshi ko'radilar.
30. Yapon qizlari yigit bilan ajrashgandan keyin sochlarini qirqishadi

1. Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib oling va to'ldiring.

Yaponiyaning tabiiy sharoiti va resurslari	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Yaponiya davlati dengiz va okeanga chiqish imkoniyati mavjud. Mamlakat qirg'oqlari shimolda Oxota, g'arbda Yapon, janubi-g'arbda Sharqiy Xitoy dengizi, sharq va janubda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Mamlakat hududi sersuv daryolarga boy bo'lib, ulardan sug'orma dehqonchilik va gidroenergetikada keng foydalaniladi.	Tinch okean seysmik mintaqasida joylashgani bois, Yaponiyada zilzila va sunamilar tez-tez sodir bo'ladi. Bu tabiiy xususiyat aholi turmush tarziga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham yaponiyaliklarga bolalik davridanoq zilzila vaqtida o'zini to'g'ri tutish qoidalari o'rgatiladi. Mamlakat hududining 3/4 qismi tog' va qirlar bilan band. Yaponiyaning eng baland tog' cho'qqisi — Fudziyama vulqoni yapon xalqi uchun muqaddas qadamjo hisoblanadi. Relyefining tog'liligi qishloq xo'jaligi yerlarining yetishmovchiligiga olib kelgan. Yaponiya foydali qazilmalarga boy emas. Yaponiya iqlimiga tayfunlarning tez-tez takrorlanishi xos.

2. Quyida keltirilgan geografik nomlar qaysi obyektlarga tegishli ekanligini aniqlang.

a) Kanto; b) Tokaydo; d) Seykan; e) Sapporo; f) Fudziyama; g) Xonsyu

- | | |
|--|--|
| 1) Yaponiyadagi eng yirik orol; | 5) Yaponiyaning eng baland tog' cho'qqisi; |
| 2) Xokkaydo orolida joylashgan yirik shahar; | 6) Yaponiyada shakllangan jahondagi eng |
| 3) Yaponiya poytaxti joylashgan tekislik; | yirik megalopolislardan biri. |
| 4) Yaponiyadagi eng uzun suv osti tunneli; | |

Javob:

1 – g; 2 – e; 3 – a; 4 – d; 5 – f; 6 – b.

3. Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy aloqalarida quyidagi transport turlaridan qaysilari asosiy ahamiyatga ega, deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.



Javob:

B rasmdagi transport xalqaro iqtisodiy aloqalar uchun muhim hisoblanadi. Sababi bu mamlakat orol davlat. Mamlakat qirg'oqlari shimolda Oxota, g'arbda Yapon, janubi-g'arbda Sharqiy Xitoy dengizi, sharq va janubda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish uchun eng arzon transport turi bo'lgan dengiz transportidan ko'p foydalanadi.

45-§. HINDISTON RESPUBLIKASI.

Hindiston haqida qiziqarli faktlar.

1. Mamlakatlar orasida Hindiston ingliz tilida so'zlashuvchilar soni bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Hindistonda 125 million kishi ingliz tilida so'zlashadi, bu mamlakat aholisining bor-yo'g'i 10 foizini tashkil qiladi. Ingliz tilida so'zlashadigan hindlar soni tobora ortib bormoqda.
2. Dunyodagi eng ko'p vegetarianlar Hindistonda yashaydi. Hindlarning 40 foizga yaqini – vegetarianlar. Jon boshiga go'sht iste'mol qilish bo'yicha eng past ko'rsatkichga ega.
3. XVIII asrda Braziliyada olmoslar topilguniga qadar Hindiston olmoslarni qazib olish va ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. Ilk marta olmoslar Krishna daryosi deltasidagi Guntur va Krishna rayonlaridan topilgan.
4. 100 million nafarga yaqin kishi har uch yilda bir o'tkaziladigan ziyoratchilar to'planadigan Kumbh Mela Festival marosimiga tashrif buyurishadi. Bu dunyoda ko'p sonli odamlarning bir joyga to'planishi bo'yicha yirik yig'ilish.
5. Dunyodagi 20 ta eng iflos shaharlardan 13 tasi Hindistonda joylashgan. Mumbai havosidan bir kun davomida nafas olish 100 ta sigaret chekishga teng.
6. Dunyodagi eng katta oila Hindistonda yashaydi: u bitta erkak, uning 39 ta rafiqalari va 94 ta farzandlaridan iborat.
7. Jami ziravorlarning 70 foizga yaqini Hindistonda paydo bo'lgan.
8. Hindistonda 14 millionta qul istiqomat qiladi. Bu jami mamlakatlar orasidagi eng yuqori ko'rsatkich.
9. Bir Makka pul ishlab topish uchun o'rtacha kishi Hindistonda taxminan 6 soat mehnat qilishiga to'g'ri keladi.
10. Iudaizm 2500 yil avval paydo bo'lgan. O'sha vaqtdan beri mahalliy aholi hech qanday antisemitizm belgilarini namoyish etmagan.
11. Prognozlariga ko'ra, 2050 yilga kelib, Hindiston dunyodagi aholisi eng zich joylashgan mamlakatga aylanadi. O'sha vaqtda aholisi soni 1,6 mlrd bo'lishi mumkin. Bu esa AQSh va Xitoy birgalikda qo'shib hisoblangandagi ko'rsatkichga teng bo'ladi.
12. Hind uy xo'jaliklari dunyoning 11 foiz oltiniga egalik qiladi.
13. 74 foiz hindlar shaxsiy tanlovga qaraganda kelishuv asosidagi nikohni afzal ko'rishadi. Ehtimol shuning uchun 100 ta nikohdan bor-yo'g'i 1 donasi ajralish bilan yakunlanadi. Bu dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri.
14. Hindistondagi Shimoliy Sentinel oroli aholisi (North Sentinel Island) hayotiga zamonaviy sivilizatsiya yetib bormagan so'nggi odamlardandir.
15. Megxalaydagi Mawsynram qishlog'i – dunyoda odam yashaydigan eng nam joy. Dunyodagi o'rtacha yog'ingarchilik miqdorining eng yuqori ko'rsatkichi unga to'g'ri keladi.

1. Hindiston aholisining qanday xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi? Hindiston va Xitoyning aholi tabiiy harakati, milliy va diniy tarkibini taqqoslang.

Javob:


Hindiston aholisi soni jihatidan dunyo bo'yicha Xitoydan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi (2020-y.). Lekin Hindiston aholisining tabiiy o'sish sur'atlari (yillik hisobda 1,4%) Xitoyga nisbatan ancha yuqoriligi sababli ikki mamlakat aholisi soni orasidagi farq tobora qisqarib bormoqda. Mutaxassislarining fikricha, yaqin yillarda Hindiston jahonning aholisi eng ko'p bo'lgan davlatiga aylanadi.

Hindiston jahondagi eng ko'pmillatli davlatdir. Mamlakatdagi millat, elat va qabilalar turli til oilalariga mansub. Hindlar, bengallar, bixarlar, telugular, panjobliklar, tamillar eng ko'psonli millatlar hisoblanadi. Hindlarning jami aholidagi ulushi 40% dan biroz ko'proq. Umummilliy rasmiy tillari — hind va ingliz. Shuningdek, turli shtatlarda yana 19 ta til rasmiy maqomga ega.

Mamlakat aholisining diniy tarkibi ham murakkab. Aholining 80% i induizm diniga mansub. Ikkinchi o'rinda jami aholining 14% ini tashkil qiladigan musulmonlar turadi. Hindistonda xristianlar, sikklar, buddistlar va boshqa din vakillari ham yashaydi.

	Hindiston	Xitoy
Aholi soni	1400,1 mln (2020-yil)	1434,2 mln (2020-yil)
Zichlik (1 km² hududga)	426 kishi	150 kishi
Aholining yillik tabiiy ko'payishi	1,4 %	0,3 %
Diniy tarkibi	Aholining 80% i induizm diniga mansub. Ikkinchi o'rinda jami aholining 14% ini tashkil qiladigan musulmonlar turadi.	Milliy dinlaridan biri — konfutsiylik eng keng tarqalgan. Shu bilan birga, daosizm, buddizm, islom, xristian dinlariga e'tiqod qiluvchilar soni ham ko'p. Musulmonlar asosan Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonida yashaydi.
Milliy tarkibi	Jahondagi eng ko'p millatli mamlakat. Hindlarning jami aholidagi ulushi 40% dan biroz ko'proq.	Ko'p millatli mamlakat. Mamlakat aholisining 90% dan ko'prog'ini xitoyliklar — xanlar tashkil qiladi.
Urbanizatsiya	35%	61%

2. Quyidagi xaritada belgilangan Hindistonning yirik shaharlari nomini aniqlang.

	Xaritada belgilanishi	Nomi
	A	Dehli
	B	Kolkata (Kalkutta)
	C	Bangalor
	D	Ahmadobod
	E	Haydarobod
	F	Chennay (Madras)
	G	Mumbay (Bombey)

3. Hindiston to'g'risidagi ma'lumotlar orasidan xatolarini toping va ularni to'g'rilang.

<i>Ma'lumotlar</i>	<i>Ma'lumotlar orasidagi hatolar</i>	<i>Izoh</i>
Yirik industrial-agrar mamlakatlar guruhiga kiradi	Xato	Xitoy va Hindiston — tabiiy resurslar, aholi soni va YIM hajmi bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lib, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi.
Siyosiy-hududiy tuzilishiga ko'ra federativ davlat hisoblanadi	<i>To'g'ri</i>	Hindiston boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublika, davlat tuzilishiga ko'ra federatsiya hisoblanadi. Tarkibida 28 ta shtat va 8 ta ittifoqdosh hududlari mavjud. Federatsiya birliklari asosan etnik tamoyil bo'yicha ajratilgan.
Aholi zichligi markaziy va g'arbiy qismlarida juda yuqori	Xato	Aholi zichligi Ganga daryosi vodiysi va dengizbo'yi pasttekisliklarida juda yuqori bo'lsa (1 km^2 ga 1000 kishidan ko'proq), baland Himolay tog'i yonbag'irlari, Shimoli-g'arbiy va markaziy qurg'oqchil hududlarida esa, aksincha, ancha siyrak joylashgan
Aholisining asosiy qismi buddizm diniga e'tiqod qiladi	Xato	Aholining 80%i induizm diniga mansub. Ikkinchi o'rinda jami aholining 14% ini tashkil qiladigan musulmonlar turadi.
Mashhur Toj Mahal majmuasi Agra shahrida joylashgan	<i>To'g'ri</i>	
Eng yirik daryolari Ganga va Hind daryolari	Xato	Eng yiriklari Himolaydan boshlanib, Bengaliya qo'ltig'iga quyiladigan Ganga va Braxmaputra daryolaridir. Shu bilan birga, Godavari, Maxanadi, Kaveri, Krishna, Narmada va Tapti ham yirik daryolar hisoblanadi.
Ekin maydonlarining kattaligiga ko'ra jahonda Xitoydan keyingi ikkinchi o'rinda turadi	Xato	AQSHdan keyingi 2-o'rinda turadi. Sug'oriladigan maydonlar hajmiga ko'ra Hindiston faqat Xitoydan keyin turadi.

<i>YIM hajmi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadi</i>	<i>To'g'ri</i>	<i>Xitoy va AQSHdan keyingi 3-o'rinda turadi</i>
<i>Mumbay shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalarining markazi hisoblanadi</i>	Xato	Bangalor shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalarining markazi hisoblanadi
<i>Ayni paytda Hindistonni ko'pincha "tafovutlar mamlakati" deyishadi</i>	<i>To'g'ri</i>	<i>Chunki unda boylik bilan kambag'allik, eng zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari bilan natural ishlab chiqarishga asoslangan oddiy xo'jaliklar uyg'unlashib ketgan</i>

46-§. FORS QO'LTIG'I ARAB DAVLATLARI.

1. Fors qo'ltig'i arab davlatlarining iqtisodiy-geografik o'rnini izohlang.


Javob:

Fors qo'ltig'i atrofida 8 ta davlat joylashgan bo'lib, ulardan 6 tasi — Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Ummon, Qatar, Quvayt, Bahrayn — tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o'xshaydi. Bu mamlakatlar guruhi Fors qo'ltig'i arab davlatlari deb ataladi. Fors qo'ltig'idagi kichik orollarda joylashgan Bahrayndan tashqari, shu guruhdagi barcha davlatlar Arabiston yarimorolida joylashgan. Mintaqa iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi uchta qit'a — Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo'llari bo'yida joylashganligi bilan belgilanadi.

T/r	Fors qo'ltig'i arab davlatlar	Geografik o'rni
1	Saudiya Arabistoni	<i>Saudiya Arabistoni, (Saudiya Arabistoni Qirolligi) Saudiya Arabistoni Podshohligi (Al-Mamlaka al-Arabiya as-Saudiya) — Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan davlat. BMT a'zosi bo'lgan bu mamlakat Arabiston yarim orolning taxminan 2/3 qismini va Qizil dengiz hamda Fors qo'ltig'idagi qator qirg'oqbo'yi orollarni egallaydi.</i>
2	Birlashgan Arab Amirliklari	<i>Birlashgan Arab Amirliklari hududi Arabiston yarim orolining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. BAA janubda va g'arbda Saudiya Arabistoni, sharqda Ummon bilan chegaradosh. Uning shimoliy qirg'og'i Eron qarshisidagi Fors ko'rfazi bo'ylab joylashgan. Qatar esa shimoli-g'arbda atigi 50 km uzoqlikda joylashgan. BAA yettita amirlikdan iborat — Abu Dabi, Ajman, Dubay, Fujayra, Ras al-Xayma, Sharja va Umm al-Qayvayn. Bu amirliklar birgalikda Portugaliya bilan bir xil kattalikdagi maydonni egallaydi.</i>

3	Ummon	Arabiston yarimorolida joylashgan. Janubi g'arbiy Osiyo davlati. G'arbda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi 676 km), janubi g'arbda Yaman (288 km) davlati bilan chegaradosh. Mamlakatning sharqiy va janubiy qirg'oqlarini Arab dengizi suvlari, shimoliy qirg'oqlarini Ummon ko'rfazi suvlari yuvib turadi. Quruqlikdagi chegaralarining umumiy uzunligi 2092 km. Mamlakatning katta qismi tog'li hududlardan iborat. Ummon ko'rfazi qirg'oqlari bo'ylab Hojar tog'i tik qoyalari yastanib yotibdi. Tog'lar va Ummon ko'rfazi o'rtasida tor Al-Botina pasttekisligi joylashgan. Mamlakatning markaziy qismida Rub-al-Xali qumli cho'lining sharqiy chegarasi joylashgan. Ummon boy neft zaxiralariga ega bo'lib, foydali qazilmalardan mis, xrom va tabiiy gaz ham qazib olinadi.
4	Qatar	Qatar Osiyoning janubi g'arbida, Qatar yarimoroli (Arabiston yarimorolining sharqiy sohillari) da joylashgan. Janubda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi — 40 km) va BAA (Birlashgan Arab Amirliklari) (20 km) bilan chegaradosh. Qatar yarimoroli hamma tomonidan Fors qo'ltig'i suvlari bilan o'ralgan. Chegarasining umumiy uzunligi — 60 km. Landshafti cho'lli tekisliklardan tashkil topgan.
5	Quvayt	Quvayt Davlati (Davlat al-Quvayt) — Arabiston yarimorolida, Fors qo'ltig'ining shimoli-g'arbiy sohilidagi davlat. Janubda Saudiya Arabistoni (chegara uzunligi — 222 km), shimolda va shimoli g'arbda Iroq (242 km) bilan chegaradosh. Chegarasining umumiy uzunligi — 499 km. Hududining katta qismi cho'lli pasttekisliklardan iborat.
6	Bahrayn	Bahrayn (Davlat al-Bahrayn) — Janubi-g'arbiy Osiyoda, Fors qo'ltig'ining Bahrayn orollaridagi davlat (amirlik). Fors ko'rfazining shimoli-g'arbiy qismida Saudiya Arabistoni va qator davlatlar qirg'oqlari bilan chegaradosh. 33 ta oroldan iborat. Ularning orasida eng yirigi Arabiston yarimoroli bilan uzunligi 25 km gacha yaqin bo'yin vositasida bog'langan Bahrayn orolidir. Bahrayn orolining uzunligi 25 km, eni — 16 km ni tashkil etadi. Orollar materik va marjonli kelib chiqishga ega.

2. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida quyidagi xaritada Fors qo'ltig'i arab davlatlari qaysi harflar bilan ko'rsatilganini toping.



Javob:

T/r	Xaritada belgilanishi	Davlatlar	Poytaxti
1	G	Bahrayn	Manama
2	F	Birlashgan Arab Amirliklari	Abu Dabi
3	I	Kuvayt	Al Kuvayt
4	H	Qatar	Doxa
5	D	Saudiya Arabistoni	Ar Riyod
6	B	Ummon	Maskat
7	A	Iroq	Bag'dod
8	J	Yaman	Sana
9	E	Eron	Tehron

3. Jadvalni to'ldiring. Mintaqadagi aholi zichligi eng yuqori va eng past davlatlarni aniqlang.

Javob:

T/r	Davlatlar	Maydoni (ming km ²)	Aholisi (mln kishi, 2020-y.)	Zichligi
1	Bahrayn	0.8	1.5	1875
2	Birlashgan Arab Amirliklari	83.6	9.8	117.2
3	Kuvayt	17.8	4.7	264
4	Qatar	11.6	2.8	241.4
5	Saudiya Arabistoni	2149.7	35	16.3
6	Ummon	309.5	4.7	15.2

Ishlanishi: buning uchun jadvalda berilgan davlatlarning maydoni va aholi sonidan kelib chiqib zichlikni aniqlaymiz. Zichlikni topishda berilgan davlat aholi soniga shu davlatning yer maydonini bo'lamiz.

Bahrayn: $1500000:800=1875$ kishi. Yoki $(1.5:0.8 \times 1000=1875)$.

Birlashgan Arab Amirliklari: $9800000:83600=117.2$ kishi. Yoki $(9.8:83.6 \times 1000=117.2)$.

Kuvayt: $4700000:17800=264$ kishi. Yoki $(4.7:17.8 \times 1000=264)$.

Qatar: $2800000:11600=241.4$ kishi. Yoki $(2.8:11.6 \times 1000=241.4)$.

Saudiya Arabistoni: $35000000:2149700=16.3$ kishi. Yoki $(35:2149.7 \times 1000=16.3)$.

Ummon: $4700000:309500=15.2$ kishi. Yoki $(4.7:309.5 \times 1000=15.2)$.

47-§. UMUMLASHTIRUVCHI DARS.

1. Darslik matnidagi ma'lumotlar asosida quyidagi davlatlar qanday ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarda turishini topib jadvalni to'ldiring.

<i>Jahon bo'yicha egallagan o'rni</i>	<i>Davlatlar</i>
<i>Qozog'iston</i>	
<i>I</i>	<i>Uranni qazib chiqarishda Qozog'istonning dunyodagi ahamiyati yuqori, chunki u 2009-yildan buyon ushbu sohada jahonda birinchi o'rinni egallab kelmoqda.</i>
<i>II</i>	<i>Qozog'istonning Rossiya bilan chegarasi uzunligi (7548 km) bo'yicha dunyoda AQSH va Kanada o'rtasidagi chegaradan keyingi 2-o'rinda turadi.</i>
<i>III</i>	-
<i>IV</i>	-
<i>Yetakchi 10 talikka kiradi</i>	- Maydoni bo'yicha jahon mamlakatlari ichida 9-o'rinni egallaydi. - Ko'mir, mis, ruxni qazish hajmi bo'yicha esa birinchi o'ntalikka kiradi.
<i>Turkmaniston</i>	
<i>I</i>	-
<i>II</i>	-
<i>III</i>	-
<i>IV</i>	<i>Turkmaniston tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha jahon mamlakatlari orasida 4-o'rinda turadi.</i>
<i>Yetakchi 10 talikka kiradi</i>	<i>Turkmaniston tabiiy gazni qazish va eksport qilish bo'yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakati qatoriga kiradi.</i>
<i>Turkiya</i>	
<i>I</i>	-
<i>II</i>	-
<i>III</i>	-
<i>IV</i>	-
<i>Yetakchi 10 talikka kiradi</i>	<i>Mamlakat eng ko'p xorijiy sayyohlarni qabul qiladigan jahonning yetakchi 10 ta davlatidan biridir.</i>

Xitoy	
I	- Aholisi soni bo'yicha. - YIM hajmi bo'yicha bo'yicha. - Gidro energetika resurslari hajmiga ko'ra. - Ko'mir qazib olish, elektr energiyasi ishlab chiqarish, po'lat, cho'yan, alyuminiy, mis, rux, qo'rg'oshin, nikel, oltin hamda boshqa qora va rangli metallarni eritish, avtomobil, turli elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, ammiak, mineral o'g'itlar, sement, qog'oz, gazlamalar, kiyim-kechak, poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xitoy jahonda birinchi o'rinni egallaydi. - Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmiga ko'ra. - Bug'doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, yeryong'oqning yalpi hosili, qo'y, echki, cho'chqa, parranda bosh soni, go'sht, jun, tuxum, asal tayyorlash, baliq ovlash hajmi bo'yicha.
II	Makkajo'xori
III	- Xitoy jahon mamlakatlari orasida hududining kattaligi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. - Shakarqamish yetishtirish
IV	-
Yetakchi 10 talikka kiradi	-
Koreya Respublikasi	
I	Kemalarni ishlab chiqarish bo'yicha.
II	-
III	-
IV	-
Yetakchi 10 talikka kiradi	- Cho'yan, rux, qo'rg'oshinni eritish, yengil avtomobillar, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning birinchi beshtaligiga kiradi. - Eksport hajmi bo'yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kiradi.
Yaponiya	
I	Yod zaxiralari bo'yicha.
II	-
III	-
IV	YIMning umumiy hajmiga ko'ra (Xitoy, AQSH va Hindistondan keyingi).
Yetakchi 10 talikka kiradi	-
Hindiston	
I	-
II	- Aholi soni bo'yicha. - Ekin maydonlarining kattaligiga ko'ra (AQSHdan kegin). - Sug'oriladigan maydonlar hajmiga ko'ra (Xitoydan kegin).

III	- Yalpi ichki mahsuloti hajmiga ko'ra (Xitoy va AQSHdan keyingi). - Sholi, bug'doy, kartoshka, shakarqamish, yeryong'oq, sabzavot, meva, paxta, choy, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirish bo'yicha jahon mamlakatlarining birinchi uchligiga kiradi.
IV	-
Yetakchi 10 talikka kiradi	- Maydoni bo'yicha yettinchi. - Ko'mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po'lat, cho'yan, mis, alyuminiy eritishda, sement, ip-gazlama, poyabzal ishlab chiqarishda jahon mamlakatlarining birinchi beshtaligiga kiradi.
Ushbu o'rinlar 2020-yilgi ma'lumotlar asosida.	

2. Quyidagi testlarning javobini daftaringizga yozing.

I variant

1. Turkmanistonda elektr energiyasi qaysi manbadan olinadi?

a) IES b) GES

2. Xitoy quruqlikda nechta davlat bilan chegaradosh?

a) 16 ta b) 12 ta d) 14 ta

3. "Sony" kompaniyasi qaysi davlatga tegishli?

a) Koreya Respublikasi b) Xitoy d) Yaponiya e) Singapur

4. "Osiyo yo'lbarzlari" guruhiga mansub davlatni toping.

a) Yaponiya b) Malayziya d) Isroil e) Xitoy f) BAA

II variant

1. Quyidagilar orasidan iqtisodiyoti uchun turizm muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatni toping.

a) Qirg'iziston b) Qozog'iston

2. Qaysi shahar Turkiyaning eng yirik shahri hisoblanadi?

a) Anqara b) Istanbul d) Izmir

3. Jahondagi eng ko'pmillatli davlatni toping.

a) Xitoy b) Pokiston d) Eron e) Hindiston

4. 2020-yil yakunlariga ko'ra, Koreya Respublikasi tashqi savdo aylanmasi bo'yicha O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 2-o'rinni b) 5-o'rinni d) 1-o'rinni e) 4-o'rinni f) 3-o'rinni.

3. Xaritada turli harflar bilan belgilangan davlatlarga mos tushuncha va nomlarni toping va ularni izohlang.

1) "Sinkansen";

2) Balxash;

3) "Uch dara";

4) yangi industrial mamlakat;

5) Nikobar;

6) Makka;

7) ibodiy musulmonlari;

8) Norak;

9) "Avaza";


10) Issiqko'l;

11) Sharqiy Frakiya;

12) Oyatullo;

13) Karachi;

14) Hirot.




Javob:

№	Mos tushuncha va nomlar	Xaritada belgilanishi	Davlat nomi
1	“Sinkansen”	M	Yaponiya
2	Balxash	O	Qozog’iston
3	“Uch dara”	E	Xitoy
4	Yangi industrial mamlakat	I	Janubiy Koreya
5	Nikobar	B	Hindiston
6	Makka	L	Saudiya Arabiston
7	Ibodiy musulmonlari	D	Ummon
8	Norak	G	Tojikiston
9	“Avaza”	A	Turkmaniston
10	Issiqko‘l	N	Qirg’iziston
11	Sharqiy Frakiya	F	Turkiya
12	Oyatullo	J	Eron
13	Karachi	H	Pokiston
14	Hiroi	K	Afg’oniston

48-§. AFRIKANING GEOGRAFIK O'RNI, SIYOSIY XARITASI, TABIIY RESURSLARI.

1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida quyidagi yozuvsiz xaritada raqamlar bilan qaysi davlatlar ko'rsatilganini toping va tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.





Javob:

<i>Xaritada belgilanishi</i>	<i>Davlat nomi</i>	<i>Poytaxti</i>
1	<i>Eritreya</i>	<i>Asmera</i>
2	<i>Malavi</i>	<i>Lilongve</i>
3	<i>Gana</i>	<i>Akkra</i>
4	<i>Ruanda</i>	<i>Kigali</i>
5	<i>Jazoir</i>	<i>Al Jazoir</i>
6	<i>Senegal</i>	<i>Dakar</i>
7	<i>Somali</i>	<i>Mogadisho</i>
8	<i>Benin</i>	<i>Porto</i>
9	<i>Misr</i>	<i>Qohira</i>
10	<i>Angola</i>	<i>Luanda</i>
11	<i>Zimbabve</i>	<i>Xarare</i>
12	<i>Madagaskar</i>	<i>Antananarivu</i>
13	<i>Burkina Faso</i>	<i>Uagadugu</i>
14	<i>Lesoto</i>	<i>Maseru</i>
15	<i>Tunis</i>	<i>Tunis</i>
16	<i>Jibuti</i>	<i>Jibuti</i>
17	<i>Nigeriya</i>	<i>Abuja</i>
18	<i>Chad</i>	<i>Njamena</i>
19	<i>Keniya</i>	<i>Nayrobi</i>
20	<i>Mali</i>	<i>Bamako</i>

2. Jahonning siyosiy xaritasidan Afrikaning orol mamlakatlarini topib, nomlari va poytaxtlarini daftaringizga yozib oling.

Javob:

<i>№</i>	<i>Davlat nomi</i>	<i>Poytaxti</i>	<i>Joylashgan o'rni</i>
1	<i>Madagaskar</i>	<i>Antananarivu</i>	

2	<i>Kabo Verde</i>	<i>Praya</i>	
3	<i>Komor orollari</i>	<i>Moroni</i>	
4	<i>Mavrikiy</i>	<i>Port-Lui</i>	
5	<i>San Tome va Prinsipi</i>	<i>San-Tome</i>	
6	<i>Seyshel orollari</i>	<i>Viktoriya</i>	

Afrikada orollarda joylashgan davlatlar soni – 6 ta

49-§. AFRIKA MAMLAKATLARINING AHOLISI VA XO‘JALIGI.

1. Xaritada ajratib ko‘rsatilgan davlatlarning qaysilariga quyidagi xususiyatlar xos ekanligini aniqlang:



Javob:

Davlatlarga xos xususiyatlar		Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Poytaxti
a	Aholisi tarkibida janubiy yevropeoid irqiga mansub arab va barbarlar ustunlik qiladi	1	Marokash.	Rabot
		2	Tunis	Tunis
b	Afrikada aholi soni bo'yicha yetakchi ikki davlat	5	Nigeriya	Abuja
		6	Efiopiya	Addis Abeba
d	Mis qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi	7	Kongo Demokratik Respublikasi	Kinshasa
		10	Zambiya	Lusaka
e	Yeryong'oq asosiy ekin hisoblanadi	3	Senegal	Dakar
		4	Gambiya	Banjul
f	Urbanizatsiya darajasi 20% ga ham yetmaydi	8	Burundi	Gitega
		9	Malavi	Lilongve

50-§. JANUBIY AFRIKA RESPUBLIKASI.

Janubiy Afrika haqida 100 ta fakt.

1. Bu meteoritning qulashi bilan mashhur bo'lgan Janubiy Afrikaning hududi.
2. Janubiy Afrika platina, olmos, oltin va kamdan-kam uchraydigan minerallarni qazib olish bo'yicha dunyoda etakchi hisoblanadi.
3. Janubiy Afrikada birinchi marta odam yurak transplantatsiyasi o'tkazildi.
4. Dunyodagi eng qadimgi toshlar Janubiy Afrikada ham uchraydi.
5. Janubiy Afrika sharobini Uolt Disney yuqori baholaydi.
6. Mashhur rooibos choyi Janubiy Afrikada ishlab chiqariladi.
7. Yerdagi eng chuqur teshik Janubiy Afrikada.
8. Janubiy Afrika dunyo kosmik mamlakatlaridan farq qiladi, u erda yuqori sifatli suv oqimi.
9. O'rtacha Janubiy Afrikalik erkaklar 50, ayollar esa 48 yoshgacha yashaydilar.
10. Janubiy Afrikada ovchilik qat'iy nazorat qilinadi va ov mavsumi yil davomida davom etadi.
11. Janubiy Afrikada 18000 ga yaqin mahalliy o'simliklar mavjud.
12. Janubiy Afrika - bu quyosh bilan to'liq ta'minlangan davlat.
13. Janubiy Afrika makadamiya yog'i va bir xil yong'oqlarni ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatdir, ularni boshqa mamlakatlarga eksport qilmoqda.
14. Bu maymun biftekiga buyurtma berishingiz mumkin bo'lgan yagona mamlakat.
15. Hech kim Janubiy Afrikadagidek dengiz mahsulotlari va baliqlarni iste'mol qilmaydi.
16. Janubiy Afrikaning 3 ta poytaxti bor: Pretoriya, Keyptaun va Bloemfontein.
17. Janubiy Afrika - katta miqdordagi mevalarni eksport qilgan ikkinchi mamlakat.
18. Janubiy Afrika yaqinida pingvinlar koloniyasi yashaydi.
19. Janubiy Afrika - Jahon kubogida ishtirok etgan birinchi Afrika mamlakati.
20. Afrikaning eng rivojlangan davlati - Janubiy Afrika.
21. Ushbu davlat hududida qushlarning taxminan 900 turi yashaydi.
22. Janubiy Afrikada 5 millionga yaqin oq tanli odamlar yashaydi.
23. Janubiy Afrikada 11 ta rasmiy til va ko'plab shevalar mavjud.
24. Yoxannesburg - Janubiy Afrikada joylashgan eng katta shahar.
25. Ushbu mamlakatda aholining 99,9% haydovchilik guvohnomasiga ega.
26. Janubiy Afrikada ideal yo'llar mavjud.
27. Rand - bu mamlakat muomalasidagi rasmiy valyuta.
28. Janubiy Afrikada sigaretalar juda qimmat.
29. Janubiy Afrikadagi aroq yoqimsiz va juda qimmat.
30. Janubiy afrikalik 30 haydovchi odobli.
31. Janubiy Afrikaning aksariyat aholisi ruscha ismlarga ega.
32. Janubiy Afrikada ahmoq va umuman aqlli bo'lmagan odamni "babun" deb atash mumkin.
33. Janubiy Afrika ko'mirdan benzin yaratgan birinchi davlatdir.
34. Bu mamlakatda benzin arzon.
35. Janubiy Afrikada muhandisning ish haqi 3500 dollar.
37. Kingclip - Janubiy Afrikada mavjud bo'lgan eng mazali baliq.
38. Regbi Janubiy Afrikada eng mashhur sport turi hisoblanadi.
39. Ushbu davlat aholisining mentaliteti slavyannikiga o'xshaydi.

40. Janubiy Afrika qit'adagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatdir.
41. Agar Janubiy Afrikada odam xavf ostida bo'lsa, unda qonun har qanday darajada o'zini himoya qilishga imkon beradi.
42. Janubiy Afrika qirg'oqlarida 2000 ga yaqin kema cho'kib ketishi kerak edi.
43. Janubiy Afrikada eng arzon elektr energiyasi mavjud.
44. Janubiy Afrika - bu bitta ko'chada 3 Nobel mukofoti sovrindori yashagan yagona davlat.
45. Ushbu mamlakatda topilgan odam qoldiqlari 160 ming yildan ortiq.
46. Janubiy Afrikada eng katta daraxt o'sadi - mevalari "maymun noni" deb nomlangan baobab.
47. Janubiy Afrika ixtiyoriy ravishda yadro qurolidan voz kechishga muvaffaq bo'ldi.
48. Janubiy Afrika - turistik biznes istiqbolli darajada rivojlangan davlat.
49. 280000 tegirmon ushbu davlat hududida.
50. Janubiy Afrikadagi 49 million kishidan atigi 18 millioni mehnatga layoqatli odamlardir.
51. Kris Barnard Janubiy Afrikada birinchi yurak transplantatsiyasini o'tkazdi.
52. Ushbu shtat hududida 28 mingdan ortiq maktab ishlaydi.
53. Janubiy Afrikada joylashgan ko'l, ko'chki natijasida hosil bo'lgan yagona ko'ldir.
54. Janubiy Afrikada juda ko'p turli xil ziravorlar mavjud.
55. Quruq go'sht bu mamlakatda biltong deb ataladi.
56. Janubiy Afrikaning aholisi go'shtni ertalab, tushdan keyin va kechqurun yeyishlari mumkin. Ular ushbu mahsulotsiz bir kun yashay olmaydilar.
57. Janubiy Afrikaliklar achchiq ovqatni afzal ko'rishadi.
58. Janubiy Afrikalik haydovchilar deyarli hech qachon yo'l harakati qoidalarini buzmaydi.
59. Janubiy Afrikadagi ovchilarning eng orzu qilgan sovrini - sher o'ljasi.
60. Ushbu davlat hududida ov qilish jarayonida eng xavfli hayvon bufalo hisoblanadi.
61. Tau-Tona - Janubiy Afrikadagi eng chuqur kon, uning yordamida oltin qazib olinadi.
62. Janubiy Afrikada Yer yuzida mavjud bo'lgan barcha relyef shakllari mavjud.
63. Janubiy Afrika yadro qurolini ishlab chiqaradigan davlatlardan biri hisoblanadi.
64. Kullinan nomli eng katta olmos Janubiy Afrikada topilgan.
65. Janubiy Afrikada 3500 million yil oldin mavjud bo'lgan ko'k-yashil suv o'tlari topilgan.
66. Janubiy Afrikada dunyodagi eng yaxshi poezd bor, bu sayohat uchun 1500 dollar sarflanishi mumkin.
67. Afrikaans - Flaman tiliga o'xshash Janubiy Afrika tili.
68. Janubiy Afrikada yaxshi malakaga ega va oliy ma'lumotga ega odamlar munosib pul topishadi.
69. 1999 yilda Janubiy Afrikada Pan-Afrika o'yinlari bo'lib o'tdi.
70. Janubiy Afrika gullaydigan daraxtlar soni bo'yicha birinchi mamlakat hisoblanadi.
71. Mamlakat o'zining sharob sanoatiga ega.
72. Janubiy Afrika aeroportlarida bank filiallari va bankomatlar kecha-kunduz ishlaydi.
73. Janubiy Afrikada zamonaviy telekommunikatsiya tarmog'i mavjud.
74. Janubiy Afrikaning ko'plab shaharlarida jamoat transporti mavjud emas.
75. Ushbu shtatda jinoyatchilik darajasi yuqori.
76. Janubiy Afrikada OIV infeksiyasini yuqtirganlar ko'p.
77. Ushbu shtat hududida o'sadigan o'simliklarning 77,80% noyob Janubiy Afrika hisoblanadi.

78. Janubiy Afrika - bu baobablarning tug'ilgan joyi.
79. Janubiy Afrikadagi tadqiqotchilar penguinlarning mo'ynali muhrlar bilan bir necha marta zo'rlanganligini qayd etishdi.
80. Eng katta olmos 1905 yilda Janubiy Afrikada topilgan.
81. Janubiy Afrikaning milliy bog'ida siz oq sherni ko'rishingiz mumkin.
85. Janubiy Afrika Afrikadagi barcha elektr energiyasining uchdan ikki qismini ishlab chiqaradi.
86. Janubiy Afrika eng kichik sukkulentlar uchun jannat deb hisoblanadi.
87. Janubiy Afrika - bu Mercedes-Benz C sinfini ishlab chiqaradigan yagona mamlakat.
88. Bu mamlakatda dunyodagi eng tezkor beshta hayvondan uchtasi yashaydi.
89. Janubiy Afrikada eng baland sakrash ko'prigi mavjud.
90. Oq tanli odamlar Janubiy Afrikada rahbarlik lavozimlarida.
91. Janubiy Afrika - ko'p millatli mamlakat.
92. Janubiy Afrikadagi kondan ko'k olmos topildi.
93. Afrika tili nemis va golland tillarining sintezidir.
94. Bu shtatda diniy ko'pchilik yo'q.
95. Janubiy Afrikadan kelgan shifokor, retinani transplantatsiya qilishning noyob texnologiyasini ixtiro qildi, buning natijasida Margaret Tetcher ko'zlarini ko'rishni saqlab qoldi.
96. Janubiy Afrikaning aholisi kuchli alkogolli ichimliklardan ko'ra pivo ichishni afzal ko'rishadi.
97. Janubiy Afrikada avtoullovni o'g'irlikdan saqlashga yordam beradigan otashin tutqichlar ixtiro qilindi.
98. Janubiy Afrikani Agulxa burni va Yaxshi umid buruni ramziy ma'noda anglatadi.
99. Janubiy Afrika aholisining 99,20% ishsiz edi.
100. Mamlakatning yillik moliyasining 100,11% sog'liqni saqlashga yo'naltiriladi.

1. Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiy-geografik o'rniga baho bering. Uning ijobiy jihatlari nimalardan iborat?

Javob:

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) Afrika qit'asining chekka janubiy qismida joylashgan. Qirg'oqlari janubi-g'arbda Atlantika okeani, janubi-sharqda Hind okeani suvlari bilan yuviladi. JAR muhim va serqatnov xalqaro dengiz yo'llari bo'yida joylashgan. Uning Keyptaun shahri Janubiy yarimshardagi eng yirik port-shaharlardan biri.



2. Matndagi xatolarni toping va ularni tuzating.

JARning **g'arbiy qismida** Drakon tog'lari joylashgan. Eng yirik daryosi — **Zambezi**. Aholisi soni bo'yicha qit'a mamlakatlari orasida **8-o'rinda** turadi. Aholining tabiiy ko'payishi sur'atlari yillik hisobda **1,4%**. Urbanizatsiya darajasi **80%**. Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti **Keyptaun** hisoblanadi. JAR konstitutsiyasiga binoan **9 ta** til rasmiy maqomga ega. Eng ko'p tarqalgan din — **buddaviylik**. Qishloq xo'jaligi mamlakat hududining **10%** qismida intensiv rivojlangan. Dehqonchilikning eng muhim tarmoqlari bog'dorchilik va **polizchilik** hisoblanadi.

Javob: yuqoridagi matnda belgilab qo'yilgan xato javoblar o'rniga quyidagi belgilangan ma'lumotlar to'g'ri keladi.

- Drakon tog'lari – **sharqiy qismida** joylashgan;
- JARdagi eng yirik daryo — **Oranj**;
- Janubiy Afrika Respublikasi qit'a mamlakatlari orasida aholisi soni bo'yicha **6-o'rinda** turadi.
- Aholining tabiiy ko'payishi sur'atlari aksariyat Afrika davlatlariga nisbatan pastroq bo'lib, yillik hisobda **1,1%** ni tashkil etadi;
- Shahar aholisining ulushi **67%** bo'lib, ushbu ko'rsatkich Afrikadagi ko'p davlatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi;
- Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti — **Yoxannesburg**. Undan tashqari, Keyptaun va Durban ham mamlakatdagi yirik shaharlar qatoriga kiradi;
- JAR konstitutsiyasiga binoan **11 ta** til, jumladan, afrikaans, ingliz va mahalliy millatlarning 9 ta tili rasmiy maqomga ega;
- Eng ko'p tarqalgan din — **xristianlik**;
- Qishloq xo'jaligi suv resurslari taqchilligi tufayli JAR hududining **15%** ida intensiv rivojlangan;
- Dehqonchilik bog'dorchilik va **uzumchilikka** ixtisoslashgan.

51-§. NIGERIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI.

Nigeriya aholisi soni bo'yicha Afrikadagi eng yirik mamlakatdir. U materikning g'arbiy qismida, Gvineya ko'rfazi sohilida joylashgan. Uning tubida juda ko'p neft bor: Nigeriya dunyodagi o'ninchi yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi.

Nigeriya haqida 5 ta qiziqarli ma'lumotlar

1. Afrika giganti

Nigeriya "Qora qit'a" ning boshqa mamlakatlaridan ajralib turadi. Bu erda 170 milliondan ortiq kishi yashaydi. Har yettinchi afrikalik Nigeriyalikdir. Nigeriyani nafaqat Afrika aholisi, balki qo'shnilariga nisbatan bir qator boshqa afzalliklari uchun ham Afrika giganti deb atashadi. Shunday qilib, u Atlantika okeanining qirg'og'ida joylashgan, neft va gazning katta zaxiralariga ega, bu uning iste'mol bozorini Afrika qit'asida eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylantiradi.

Yaqinda Nigeriya YaIM bo'yicha Janubiy Afrikani ortda qoldirdi. Har kuni Afrikaning turli burchaklaridan minglab savdogarlar va xaridorlar turli xil tovarlarni sotish va sotib olish uchun Nigeriyaning dengiz portlariga kelishadi, ularning assortimenti hatto zamonaviy shopaholicni ham hayratga soladi.

2. Daryoning mo'lligi

Nigeriyaning markazida katta dasht joylashgan bo'lib, undan ko'plab daryolar

oqadi. Ular mamlakatning ikkita asosiy daryosiga quyiladi: Niger va uning eng katta chap irmog'i Benue. Niger Afrikadagi eng uzun daryo bo'lib, Kongo va Nildan keyin uchinchi o'rinda turadi. Uning uzunligi 4185 m. Niger Sierra Leone va Gvineyani o'rab turgan tog'lardan kelib chiqadi va Atlantika okeaniga quyiladi. Niger deltasi botqoqli, daryoni musson yomg'irlari suvlari to'ydiradi.

3. Qul savdosi markazi

Nigeriyaning g'arbiy qirg'og'i bir paytlar qul savdosi joyi bo'lgan - o'sha erda boy G'arb davlatlari qul sotib olgan. 1472 yilda bu davlatga birinchi bo'lib portugallar kirib keldi, so'ngra bu hudud Buyuk Britaniya tomonidan qo'lga kiritildi.

4. Qadimgi davlatlar

Nigeriya hududida yirik davlatlar, masalan, Chad ko'li yaqinidagi mustamlakachilikgacha bo'lgan Kanem Borno yoki tropik o'rmonda joylashgan Oyo va Benin shohliklarini barpo etishgan. Kano, Zariya va Katsina shahar-davlatlari mamlakat shimolida joylashgan edi.


Janubda o'rmonlar kesilib, ularning o'rniga shaharlar barpo etildi, bu Afrika uchun odatiy emas. Aynan shu erda hunarmandchilik va san'at rivojlangan. XIII asrdan boshlab Nigeriyaning janubiy qismi fil suyagi, yog'och va bronza haykallari bilan mashhur.

5. Qayg'uli zamonaviy zamon

Nigeriyada asosan qishloq aholisi yashaydi. Lagos kabi juda katta shaharlar ham bor. Bu erda 10 millionga yaqin odam yashaydi. Mamlakatda 250 millat vakillari bor. Neft konlariga egalik qiluvchi nigeriyaliklar juda boy. Yaqinda katta shaharlarning chekkalarida tobora dahshatli qashshoqliklar paydo bo'ldi. Ishsizlar va kambag'allar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda va OITS, jinoyatchilik va inflyatsiya tarqalishi barcha rekordlarni yangilamoqda.

Nigeriyada muntazam ravishda harbiy to'ntarishlar bo'lib turadi, bu demokratik tartib o'rnatishga xalaqit beradi. Musulmonlar va nasroniylar o'rtasida ziddiyat kuchaymoqda. Xorijiy investorlar Nigeriyaning chetlab o'tishga harakat qilmoqda.

1. Jahonning siyosiy xaritasi yordamida Nigeriya va quyidagi davlatlarning geografik joylashuvida qanday umumiy jihat borligini aniqlang.



Javob:

Rasmda belgilanishi	Davlat nomi	Poytaxti	Geografik joylashuvidagi umumiy jihati
a	Shri-Lanka	Kolombo	Ushbu davlatlarning barchasi shimoliy yarimsharda joylashgan bo'lib, 0° va 20° shimoliy kengliklar oralig'ida joylashgan
b	Venesuela	Karakas	
d	Flippin	Manila	
e	Efiopiya	Addis-Abeba	

52-§. MISR ARAB RESPUBLIKASI.

Misr haqida 100 ta qiziqarli faktlar

1. Tish pastasi, taroq va sovun birinchi marta Misrda paydo bo'lgan.
2. Shisha va sementni misrliklar ixtiro qilgan.
3. Kosmetikadan foydalanish Misr bilan bog'liq.
4. Misrda o'rganilgan, go'shtni saqlashda foydali bo'lgan mumiyolash sanoatidan olingan bilimlar.
5. Kontratseptivlar va antibiotiklar birinchi marta Misrda qo'llanilgan.
6. Misrda pochta birinchi marta kabutarlar yordamida ishlatilgan.
7. Misrning eng hurmatli xudosi Ra xudosidir.
8. Dunyodagi birinchi vasiyat Misr fir'avni Xafrening o'g'li tomonidan yozilgan.
9. Birinchi Misr piramidasi pog'onali toshli devorga ega bo'lgan piramida hisoblanadi.
10. Qadimgi Misrda erkaklar oq, ayollar esa qora kiyim kiyishgan.
11. Hozirgi kunda Misrda juda ko'p arablar yashaydi.
12. Pivo Qadimgi Misr aholisining eng sevimli ichimligi hisoblanadi.
13. Misrning butun mavjudligi davrida uning nomi bir necha bor o'zgargan.
14. Misrning deyarli hammasi cho'ldir.
15. Misrda faqat bitta daryo oqadi – Nil daryosi.
16. Misrning asosiy daromadi sfera turizmidan emas, balki vazifalardan kelib chiqadi.
17. Misrda mol-mulk solig'i bu tarzda to'lanmagani uchun ko'plab uylarning tomi qurib bitkazilmagan.
18. Pariklarni misrliklar ixtiro qilgan.
